

BIR BO'LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

www.mv-vatanparvar.uz



# VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKİSTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2024-yil 27-sentabr, №39 (3101)

## 1-OKTABR – O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI



TA'ZIMLAR-U,  
TASHAKKURLAR SİZGA,  
USTOZ!

Jahongirlik ajdoddalar meros asli,  
Har sohaga bosh bo'ladi ustozi nasli.  
Harbiy ilm saboqlarning zabardasti,  
Ta'zimlar-u, tashakkurlar sizga, Ustozi!

Yurtni asrar mardlar tengsiz sabot ichra,  
Olmos bo'lib qad rostlaydi saboq ichra.  
Ustozlardek fidoyi yo'q hayot ichra,  
E'zozlar-u, ehtiromlar sizga, Ustozi!

Siz-la ko'kda parvoz qilar lochin mardlar,  
Daxlsizdir yer-u ko'kda yurt, sarhadlar,  
Ustozi ila boqiy erur ont-u ahdlar,  
Ta'zimlar-u, tashakkurlar sizga, Ustozi!

To'pchilar-u uchuvchilar, sapyor, tankchi,  
Razvedka-yu, maxsus guruh – mohir jangchi,  
Ustozlardan saboq olgan el tayanchi,  
E'zozlar-u, ehtiromlar sizga, Ustozi!

Zulfiya YUNUSOVA



4-5 VAFİFLAR TURLICHA,  
MAQSAD ESA BITTA

6 VATANGA SADOQATNING  
O'LMAS TIMSOLI

15 NOMLAR QA'RIDAGI  
HAQIQATLAR

19 MISLI KO'RILMAGAN  
MOTIVATSİYA



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

**BIZ**  
HAQIMIZDA

@vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv\_vatanparvar\_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

# Toshkent – xalqaro harbiy tibbiyat anjumani mezboni



Poytaxtimizda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasidagi "Toshkent – 2024" xalqaro harbiy tibbiyat konferensiyasi bo'lib o'tdi va unda hamdo'stlikka a'zo davlatlar Mudofaa vazirliklari harbiy tibbiyat xizmati boshliqlari, yetakchi mutaxassislar ishtirok etdi.

Mehmonlar dastlab Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali hamda O'zbekiston Respublikasi Qorulik Kuchlari harbiy tibbiyat akademiyasi faoliyati bilan yaqindan tanishtirildi. Shifo maskani hududida soha mutaxassislariga murakkab jarrohlik amaliyotlarini o'tkazish uchun moslangan mobil tibbiy kompleks

hamda biologik xavfsizlik laboratoriysi namoyish etildi. Xorijlik mehmonlar Markaziy harbiy klinik gospitaldi zamonaviy shart-sharoitlar va texnikalarga yuqori baho berdi. O'zaro muzokaralar davomida qatnashchi davlatlar delegatsiya vakillari harbiy tibbiyat sohasida O'zbekiston tajribasidan foydalanish, bu

sohada hamkorlik doirasini yanada kengaytirish haqida kelishib oldi.

Shundan so'ng Qurolli Kuchlar akademiyasida xalqaro konferensiya qatnashchilarini ishtirokida amaliy muzokaralar tizimidagi yig'ilish tashkilashtirildi. O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining birinchi o'rinnbosari – Qurolli Kuchlar

Bosh shtabi boshlig'i general-major Shuxrat Xalmuxamedov boshchiligidagi bo'lib o'tgan yig'ilishda MDH Mudofaa vazirliklari harbiy tibbiyat xizmati boshliqlari va yetakchi mutaxassislar kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilgan hamkorlikdagi ishlarga to'xtalib o'tdi. General-major Shuxrat Xalmuxamedov xalqaro harbiy tibbiyat konferensiyasi qatnashchilarining yurtimizga tashrifi har tomonlama samarali bo'lishiga urg'u berib, bu boradagi o'zaro tajriba almashish har bir davlat uchun samarali bo'lishini ta'kidladi.

Eslatib o'tamiz, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi

doirasidagi "Toshkent – 2024" xalqaro harbiy tibbiyat konferensiyasi uch kun davom etdi va uning doirasidan qator amaliy tadbirlar ham o'rin oldi. Konferensiyaning ikkinchi kunida Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitalining tajribali shifokorlari ishtirokida o'ndan ortiq jarrohlik amaliyotlari o'tkazildi. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi delegatsiyasi Samarqandga tashrif buyurib, ikkinchi jahon urushi davrida butunittifoq miqyosida faoliyat olib borgan, o'sha davrdagi yagona tibbiyat akademiyasi faoliyati bilan ham yaqindan tanishdi.

**Kamoliddin ASROR**



Kichik serjant Ixtiyor MAMAOV


**Konferensiya**

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o'rganish ilmiy tadqiqot institutida "Zamonaviy harbiy mojarolarda Qurolli Kuchlar va qo'shin turlarini tog'li sharoitlarda (relyefi qiyin bo'lgan hududlarda) qo'llash" mavzusidagi respublika harbiy-ilmiy konferensiyasi bo'lib o'tdi.



# JANGOVAR HARAKATLANISHDA

## yangicha yondashuv va tahlillar

Unda Mudofaa vazirligi markaziy apparati, harbiy okrular va oliy harbiy ta'limga muassasalarining soha bo'yicha malakali o'qituvchilari, ilmiy tadqiqot markazlarining ekspertlari hamda tegishli vazirlig va idoralarning vakillari ishtirok etdi.

Konferensiyada qo'shinchilarni tog' sharoitida qo'llashning milliy va xorijiy tajribalari, hududlarda jangovar harakatlar olib borishda razvedka va aloqa vositalarini tashkillashtirishda yangicha yondashuvlar, tog'li hududlarda aviatsiya va uchuvchisiz uchish apparatlarini qo'llash tajribalari, qo'riqlash tizimining milliy va xorijiy tajribalarini muhokama qilish kabi muhim yo'nalishlar tahlil qilindi.

Muhokamalarning ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, tog'li hududlarda qo'shinchilarni harakatining bugungi holati va rivojlanish tendensiyalari, Qurolli Kuchlarni qo'llash tajribasiga oid milliy va xalqaro tajribalar aniq tahlillar asosida umumlashtirildi.

So'zga chiqqan harbiy mutaxassis va ekspertlar tomonidan tadbir doirasida milliy armiyamizning mudofaa



salohiyatini yanada oshirishga qaratilgan amaliy takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha konstruktiv muhokamalar olib borildi.

bajarilishini kuzatdi, xavfsizlik qoidalari bilan tanishdi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa sanoati agentligi korxonalarini



Mualif surtaga o'gan

Shuningdek, konferensiya doirasida anjuman ishtirokchilari hamda Qurolli Kuchlar akademiyasi tinglovchi va kursantlari uchun zamonaviy tog' anjomlari, tog' tayyorgarlik elementlarining namoyishi hamda qurol-aslahalar ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

Ko'rgazma davomida konferensiya ishtirokchilari Mudofaa vazirligi qo'shinchilardagi mavjud zamonaviy tog' anjomlarini ko'zdan kechirdi, xizmat vazifalarini bajarishda ularning ahamiyati to'g'risida ma'lumot oldi, tog' tayyorgarlik elementlarining maxsus o'quv-mashq qurilmasida amaliy

tomonidan ishlab chiqarilayotgan zamonaviy texnika, uchuvchisiz uchish apparatlari, himoya vositalari hamda o'q-dorilar bilan tanishdi.

Konferensiya yakunida faol ishtirokchilar O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Bosh shtabi, Qurolli Kuchlar mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o'rganish ilmiy tadqiqot instituti rahbariyati tomonidan taqdirlandi.

**Kapitan  
Bobur ELMURODOV,  
"Vatanparvar"**

Bugungi kunda Mudofaa vazirligi miqyosida qo'shinlarning jangovar ruhini yanada oshirish uchun mashg'ulotlarda turli usullardan foydalaniylmoqda. O'tkazilayotgan o'quv yig'inlarida jangovar tayyorgarlikni yanada oshirish uchun turli zamonaviy taktikalarning qo'llanilayotgani alohida e'tiborga molik.



# VAZIFALAR TURLICHA, MAQSAD ESA BITTA



Ana shunday zamonaviy taktik harakatlar Termiz garnizoni harbiy xizmatchilari tomonidan ham muvaffaqiyatlari amalga oshirildi. Bo'linmalar "Termiz" umumqo'shin poligonidagi o'quv nuqtalariga chiqishdan oldin

jismoniy hamda ruhiy zo'riqish to'siqlarini yengib o'tish, tibbiy tayyorgarlik, aloqa vositalaridan foydalanish, muhandislik nazorati, hudud xaritasi bo'yicha ishlash, avtomat, belkurak, pichoq bilan qo'ljangi harakatlarini bajarish

kabi mashqlar bo'yicha sinovlarni topshirdi.

Ikki kunlik sinovdan keyin shaxsiy tarkib erta tongda jangovar texnikalar kolonnasi bilan topshiriqlarni bajarish uchun belgilangan hududlarga yo'l

oldi. Ko'rsatilgan manzilga yetib borish jarayonida shartli dushman pistirmasiga qarshi harakat, ponton ko'prigini o'rnatish, minalashtirilgan maydonlarni tozalash mashqlari bajarildi. Har bir vzzvod cho'l sharoitiga



moslashgan holda niqoblandi. Qisqa vaqt ichida qo'mondonlik punkti tiklanib, uning atrofiga jangovar texnikalar, aloqa vositalari, dala oshxonasi, tibbiy xizmat ko'rsatish punkti joylashtirildi.

Dastlabki jangovar harakatlar leyttenant Mehriddin Ibrayimjonov komandirlilik qilgan uchta tank ekipajidan iborat guruh tomonidan amalga oshirildi. Guruhdagi har bir tank bir-birini himoya qilgan holda devor usulida 1 200 va 800 metr uzoqlikdagi nishonlarni aniq mo'ljalga olish hamda zudlik bilan o'q otish joyini o'zgartirish bo'yicha mashqlarni amalga oshirdi. Bu vazifani deyarli 100 foizlik natija bilan uddalagan guruhdagi barcha harbiy xizmatchiga mudofaa vaziri



o'rinosari polkovnik Qodirjon Tursunov tashakkur bildirdi va ularni rag'batlantirish bo'yicha ko'rsatma berdi.

Yaqindagina Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtidagi o'qishini tamomlab, qo'shinlardagi faoliyatini boshlagan leyttenant Mehriddin Ibrayimjonov uchun ham, boshqa harbiy xizmatchilar uchun ham topshiriqning muvaffaqiyatli bajarilishi o'zbek yigitlariga xos yutuq edi. O'quv nuqtasida guruh

shaxsiy tarkibining "O'zbekiston Respublikasiga sadoqat bilan xizmat qilaman!" degan hayqirig'i yangradi.

Tankchilar muvaffaqiyati "Termiz" umumqo'shin poligonidagi navbatdagi o'quv nuqtalarida boshqa guruhlar tomonidan ham davom ettirildi. Bo'linmalar yaqin masofada jang olib borish, dala va shahar sharoitida jangovar harakatlanish, razvedka-qidiruv ishlarini amalga

oshirish, dushmanni qurshab olish jarayonlari bo'yicha harakat qildi. Yuklatilgan har bir topshiriq vzzvod va batalyon komandirlari tomonidan nazorat qilib borildi hamda vaziyat haqida harbiy qism qo'mondonlik punktiga muntazam axborot yetkazib turildi.

guruh, vzzvod va batalyon turlicha topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarib, ko'zlangan maqsadga erishildi.

- Bu safargi mashg'ulotlar dasturi bir qator yangi taktik harakatlar va elementlar bilan boyitildi, - deydi mayor Zarif



Bir hafta davom etgan jangovar mashg'ulotlarda tungi otish mashqlari ham amalga oshirildi. Nishonlarni tungi yoritish moslamalari yordamida xavfsizlik qoidalariga amal qilingan holda, tun qorong'isida haqiqiy jang sahnasi tashkil etildi. Bir haftalik jangovar mashg'ulotlar tungi otish mashqlari bilan ana shu tarzda yakunlandi. Eng asosiysi, har bir

Choriyev. - Shaxsiy tarkib o'quv nuqtalariga chiqishga qadar bu harakat va elementlarni faqatgina nazariy jihatdan o'rgangan bo'lishiga qaramay, oldimizga o'quv nuqtalariga qaramay, oldimizga qo'yilgan maqsadga erishdik. Xato va kamchiliklar kuzatilgan bo'lishi mumkin. Ammo mana shunday harakatlar orqali bo'linmalarning jangovar shayligi oshib boraveradi.

Fazliddin CHORIYEV





# VATANGA SADOQATNING o'lmash timsoli

Men sizga uning qanday yashagani haqida gapirib beraman...

"So'nggi samuray" filmidan.

Rejissyor Edvard Svik 2003-yili "So'nggi samuray" filmini yaratganida Yaponiya ozodligi uchun kurash olib borgan samuraylarning qahramonligini Katsumoto obrazni orqali oshib berishga harakat qilgan. Film yakunida kapitan Neytan Olgreyunning Yaponiya imperatoriga qarata "Men sizga uning qanday yashagani haqida gapirib beraman", degan birgina jumlasida Katsumoto timsolidagi ozodlik uchun kurashgan barcha yapon samuraylari gavdalantiriladi.

Vatan uchun jonini fido qilgan qahramonlar bosib o'tgan hayot yo'liga nazar tashlar ekanmiz, har safar ularga eng yaqin bo'lgan insonlardan yangi-yangi hikoyalar



eshitgimiz kelaveradi. Chunki bu hikoyalar katta-yu kichik uchun o'rnat bo'lishga arziydi. Ayniqsa, yoshilar qahramonlar hayotidagi eng oliyjanob xislat – Vatanga sadoqat namunasini o'zlashtirib olishga harakat qiladi.

Hali 23 yoshta to'lmay, Vatan uchun ko'ksini qalqon qilib, ana shunday sadoqat namunasini yaratgan qahramonlardan biri katta leytenant Alisher Salimovdir. Bugungi kunda Alisher Salimov timsolida voyaga yetayotgan yosh avlod vakillarining son-sanog'i yo'q. Qahramonning hayot yo'li haqidagi har bir hikoya esa ana shunday yoshlar uchun hamisha eng qimmatli o'rnat namunasini bo'lib qolaveradi. Onasi Nortojixon Salimova, birga o'sgan sinfdoshi Lola Mirzaahmedova, bilim yurtida birga o'qigan kursdoshi Aleksandr Gafurov yodida bir umrga muhrlanib qolgan xotiralar haqiqiy qahramonlarga loyiq.

## Nortojixon SALIMOVA:

– Alisher bog'cha yoshidan urush qatnashchisi bo'lgan ikki bobosidan fashizmga qarshi kurashdagi qahramonliklar haqida eshitib katta bo'lgan. Otam Tojiqo'zi Boltabayev Farg'onadan Fin urushiga ketib, keyinchalik fashistlarga qarshi, so'ngra Mo'g'ulistonni yapon militarishtalaridan ozod qilish janglarida qatnashgan. Turmush o'rtog'imning otasi Qahhor Salimov Dushanbedan frontga



jo'natilgan. Urushdan keyin ularning har ikkalasi ham Yangiyer shahrida mehnat faoliyatini davom ettirgan. Bobolari har doim Alisherni frontdosh do'stlari bilan bo'lgan uchrashuvlarga olib borishardi. Urush xotiralari haqida suhbat qurilganda Alisher bobosidan "Nega urushga borgansiz?" deb so'rab qo'yardi. Yosh bolalarga xos takror-takror beriladigan savolga har ikki bobosining javobi ham bir xil bo'lardi – "Gitler degan maxluqdan yurtimizni himoya etish uchun". Ertakmonad javobdan Alisher bobolarini botir va qo'rmas qahramon sifatida tasavvur etardi va shuning uchun ulg'ayganda Vatan himoyachisi bo'lishni tanlagan bo'lsa kerak.

9-may kuni fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga bag'ishlab o'tkaziladigan parndlarda faxriy urush qatnashchilari bilan minbarga chiqishni juda yoqtirardi. Ularga o'xshab orden-medallari ko'p general bo'laman, derdi. Mafabda o'qib yurganida musiqa to'garagiga qatnardi. Bobolarining

hikoyalar, harbiy sinovchi-uchuvchi amakisi Tolib Salimovga havasi harbiylikni tanlashda muhim rol o'ynadi, deb o'layman. Bolaligida kaptar boqishga juda qiziqardi. Chunki kinolardan kaptarni tinchlik timsoli sifatida ko'p ko'rgan va kitoblarda o'qigan. Ukasi Daler tug'ilmagan paytlar "Oyijon, mening ham boshqalarga o'xshab ukam bo'lishini juda-juda xohlayman", derdi. Boshida Alisherning bu gaplarini jiddiy qabul qilmadim. Ammo bir kuni oldimga kelib, yalingancha o'sha iltimosini takrorladi. Xullas, uning orzusi amalgalash, Daler dunyoga keldi. Halok bo'lishidan sal avval Daler maktabga chiqish yoshida edi. 25-iyul kuni ukasining tug'ilgan kuniga sovg'a-salomlar bilan kirib kelgan. Sovg'alar orasida yelkaga osadigan chiroyli mafabda sumkasi ham bor edi. O'zining taqdirlini oldindan bilganmi deyman. Ketishidan avval ukasi, opasi Laylo va jiyanlari bilan yig'lab xayrashgandi. Alisherning vafotidan keyin Daler bu sumkani

so'zi va ishida qat'iy turadiganlar toifasidan edi. Bir xonada yashab, aka-ukadek bo'lib qolgandik. Alisher Salimov, Olim Xurramov, Baxtiyor Xolbekov, Otabek Mavlakov va men. Yoshimiz teng bo'lsa-da, bir-birimizga hamisha aka deb murojaat qilardik.

2000-yil avgust oyi voqealarini hamon ko'z o'ngimda. Alisher qurolini ko'targancha tish-tirnog'i bilan qurollangan terrorchilar joylashgan nuqtani yon tomondan aylanib o'tish uchun yugurib ketdi. Dushman mergani buni payqab qoldi va... oradan to'rt kun o'tib, 8-avgustda Alisherning jasadi topildi. Bir yildan keyin aynan shu sanada birinchi farzandim tug'ildi. Do'stimning xotirasiga uning ismini Alisher qo'ydim. Keyinchalik ko'plab kursdoshlarim va xizmatdoshlarim ham birinchi farzandlari ismini qahramon do'stimizning nomi bilan atadi. Xizmatdoshlar bilan Yangiyerga tez-tez borib turamiz. Nortojixon Salimova o'z onamizdek bo'lib qolgan. Hammamiz telefonimizda uning raqamini "Tanya ona" deb saqlab qo'yanmiz. Daler bilan ham xabarlashib turamiz. Biz uchun Alisher o'Imagan. Vatanga sadoqatning o'lmash timsoli sifatida barchamizning qalbimizda yashab kelmoqda.

**Lola MIRZAAHMEDOVA, sinfdoshi:**

– Alisher bilan o'rtamizda bor-yo'g'i ikki haftalik farq bor. U 15-sentabrda, men esa 29-da tug'ilganman. Bir mahallada yashaganimiz uchun bog'chada ham bir guruhga qatnardik. Keyinchalik mafabda ham birga o'qidik. Ofitser sifatida xizmatini boshlagandan keyin bir necha bor ko'rishganmiz. O'shanda "Qachon uylanasan?" deya hazillashardim. Uylanish qochib ketmasligini, hozir eng muhimi, Vatanga xizmat qilishi kerakligini ishonch bilan takrorlardi. U haqda bolalik davridan boshlangan xotiralarim men uchun muqaddas. Chunki Vatan himoyasi yo'lida, xalqimiz tinchligi, bugungi osoyishta kunlar uchun ko'ksini qalqon qila oldi. Uning xotirasiga bag'ishlab o'tkaziladigan tadbirlarda yoshlarga bu haqda takror-takror so'zlab beraman. Ana shunday vaziyatlarda qahramonlar sira o'lmashligiga yana bir marta ishonch hosil qilaman...

**Podpolkovnik Aleksandr GAFUROV, kursdoshi:**

– Alisher bilan Samarqand olyi harbiy avtomobil-qo'mondonlik bilim yurtida tahsilni tugatib, Farg'onada ham birga xizmatni davom ettirganmiz. U bilan 2000-yili Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlariga bostirib kirgan g'alamislarga qarshi kurashda yelkama-yelka turib, jang qilgandik. Afsuski, do'stligimizning umri qisqa ekan. Janglarning birida og'ir yaralanib, halok bo'lidi. O'sha jang tafsilotlariga batafsil to'xtalib o'tmoqchi emasman. Ammo Surxondaryo otlanganimizda Alisherning nigohidagi g'azabni bir umr yodimdan chiqarmayman. Bu yurtimizning tinchligiga ko'z olaytirgan dushmanlarga bo'lgan g'azab edi. O'qish davomida ham, Marg'ilondagi xizmatimiz davomida ham biror marta uning bunday g'azablanganini ko'rmagandim. Chunki Alisher tabiatan xushchaqchaq bo'lsa-da,

1977-yil oddiy ishchi oilasida tug'ilgan Alisher Salimov va u bilan halok bo'lgan boshqa qahramonlar haqida hali ko'plab kitoblar yoziladi, filmlar suratga olinadi. Yuqorida uni xotirlaganlar aytganidek, ular qalblarda uzoq-uzoq yillarda yashaydi. Yurtimiz sarhadlariga bostirib kirgan g'animlar O'zbekistonligi davlat boshqaruvini qo'lga olamiz, deya shu qadar xomxayolga borganki, o'sha manqurtlar Vatani uchun Alisher, Sayyor, Elomon, Ulug'bek, Mashrab singari o'g'lonlari ko'ksini qalqon qilishini yetti uxlab, tushida ham ko'rmagan. Chunki o'sha manqurtlar kindik qoni to'kilgan zamanni himoya qilish muqaddasligini, bu muqaddas burchni egniga harbiy libos kiygan har bir Vatan himoyachisi qila olishini qayerdan ham bilsin!

**Asror RO'ZIBOYEV,  
"Vatanparvar"**

## Xotira



Har yili 1-oktabr kuni bir guruh shogirdlar kino va televideeniye rejissori Shavkat Mahbubovni bayram bilan qutlash, suhabatini olish maqsadida huzuriga oshiqardik. Bu an'anaga aylangandi. Bu yil ham sanoqli kunlar qolgandi... Afsus... bugun ustozni bir hovuch duo bilan eslab o'tiribmiz...

O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR kunida bu yil ham Shavkat Mahbubovning shinam, gullari barq urgan, usti yopilgan so'rining bir tomoniga qadimiy uy-ro'zg'or buyumlari, patefon va boshqa o'ziga xos ashyolar joylashtirilgan hovlisida rejissyor, tasvirchi, muharrir, jurnalist, videomuhandis va shu kabi vazifalarda faoliyat yuritayotgan shogirdlar jam bo'lishni kelishib qo'ygandik. Tanlovga materiallar ham tayyorlab, o'zimizcha g'olib bo'lishni o'ylab yuruvdik.

BU BIR SAMIMIY TANLOV edi. Uning paydo bo'lish tarixi mana bu voqeа bilan bog'liq. Odatdagidek, ustozlar kunida yig'ilganmiz. Shavkat aka dasturxon atrofiga o'tirishdan oldin har doimgidek hovlidagi o'zgarishlar, ayniqsa mayda, katta, qizil, sariq, binafsha va boshqa ranglarda ochilgan gullari haqida gapirdi, shu orada o'tgan-ketgandan bir qancha voqealar so'zlandi, har zamon "qah-qah" kulgilar ham bo'ldi. O'sha kuni devorga yaqin yerda odam yelkasidan keladigan, yaproqlari shapaloqdan mundayroq bir o'simlikni ko'rsatib, "Buni kun botayotganda kuzatinglar, bir necha daqiqada chaman bo'lib ochiladi", dedi ustoz. "Yo'g'e, nahotki?!" dedi shogirdlar.

AYTILGANIDEK, kun ham botaverdi, gul ham ochilaverdi. Xuddi qandaydir mexanizm deysiz, ajoyib-u g'aroyib. Yig'ilganlar "videochi" emasmi, hammasi birpasda ishga kirishib ketdi. Biri uzoqdan, biri yaqindan, biri ostidan, biri ustidan bir-birini turtib, telefonini ochilayotgan gulga to'g'rilab, uni tasvirga ola boshladi. Gullar ham ochilib bo'ldi. "Videochi"lar hayrat va ishqivozlik bilan ishini tugatdi. Hozirgina yam-yashil turgan o'simlik go'zal bir guldstaga aylandi. Shu kuni qaytar chog'imiz:

- Endi bir gap. Hali tushirilgan tasvirlarni keyingi yig'ilganimizda, albatta, olib kelinglar, tanlov o'tkazamiz, birma-bir ko'rib, g'olibni aniqlaymiz, - dedi Shavkat aka.



## BIR HOVUCH DUO

# BILAN ESLAB...

Keyingi yillarda tanlovga ustoz tomonidan erkin mavzu tanlandi. Shogirdlar biror voqeа, manzara yoki holatni tasvirga olib kelar, tanlovda ishtirot etmaganlar hakamlar qatoriga qo'shilib, g'olib va sovrindorlar aniqlanardi. Birinchi, ikkinchi, uchinchi o'ren egalariga Shavkat aka tayyorlagan o'ziga xos mukofot tantanali topshirilar, g'olib boshiga yam-yashil barglardan iborat chambar kiydirildi.

Shavkat Mahbubov nafaqat shogirdlariga, balki yaqin atrofidagilarga ham doim ana shunday bir ko'tarinki ruh bag'ishlardi, saboq berardi.

O'ZBEKİSTONDA xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, bir necha yillar Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashida faoliyat yuritgan kino va televideeniye rejissori Mahbubov Shavkat Gulyamovichning hayoti milliy armiyamiz rivojlanish tarixi bilan chambarchas bog'liq.

1994-yil o'zbek armiyasi, harbiylarning hayoti, jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlariga bag'ishlangan "Vatanimga xizmat qilaman!" nomli

birinchi ko'rsatuv efirga uzatildi. Shundan keyin ko'p o'tmay, har yakshanba kuni bir soat namoyish etiladigan ko'rsatuvga doimiy rejissyor tayinlash masalasi ko'tarildi. Chunki yosh rejissyorlar dala mashqlari maydoni yoki tankodromlardan bir necha reportajlar tayyorlaganidan so'ng keyingi ko'rsatuvi tayyorlashni rad qila boshladi.

- Bu mavzuga qiziqishim ortiq bo'lgani uchun rahbariyatga teleradiokompaniyaning bosh rejissyorligini topshirishim va harbiy mavzudagi teledasturga meni rejissyor etib tayinlashlarini so'rab ariza kiritdim. Arizam qabul qilinib, 1994-yilden boshlab "Vatanimga xizmat qilaman!" ko'rsatuvu menga topshirildi, - degandi bir kun ustoz.

YURTIMIZDA ilk bor harbiy mavzuda suratga olingan ko'p qismli "Sardor" va uning davomi "Ostona", "Sardor-2", "Sardor-3" nomli badiiy filmlar rejissyori Shavkat Mahbubovni milliy armiyamiz qo'shinlarida xizmat qilayotgan harbiylar yaxshi taniydi. Chunki ularning ko'pchiligi mazkur badiiy filmlarni ko'rib, harbiy kasbni tanlagan.

SHAVKAT MAHBUBOV 2006-yilgacha O'zbekiston Qurolli Kuchlari faoliyati haqida o'nlab ko'rsatuvlar tayyorladi. Ularda milliy armiyamizning tiklanish va rivojlanish davri, xalqaro harbiy hamkorliklar, harbiy islohotlar jarayonlari keng yoritildi.

Safarlar davomida ustozimiz Qurolli Kuchlarimiz faoliyati haqida badiiy film tasvirga olish niyati borligini ko'p gapirardi. Nihoyat, bu orzu 2000-yil amalga oshdi. Shu yili "O'zbekfilm" buyurtmasiga asosan, taniqli kinodramaturg Yusuf Roziqov ssenariysi asosida mamlakatimizda harbiy mavzudagi birinchi ko'p qismli "Sardor" badiiy filmi suratga olindi.

1997-YILDA O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvon, 2006-yili "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan kino va televideeniye rejissyori Shavkat Mahbubovning ijodiy ishlari "Oltin qalam" milliy mukofoti hamda bir necha ko'rik-tanlovlarda kino san'ati asarlari bo'yicha 1-o'ringa munosib topilgan.

O'TGAN DAVRDA hujjalni filmlar kinostudiysi buyurtmasi bilan Mahbubov rejissyorligida "Vatanga xizmat - muqaddas burch", "Sening uchun yasharman!", "Lochinlar", "Askarlar kuylaganda", "Milliy armiyamiz - mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolati" nomli va boshqa mavzularda o'nga yaqin hujjalni film tayyorlandi. Bugun ular "O'zbekkino"ning oltin fondidan joy olgan.

Shavkat Mahbubov San'at institutida ham bir muddat bo'lajak rejissyorlarga saboq bergan. Shogirdlaridan biri Sarvar Karimov "Sehrli qalpoqcha", "Sarvqomat dilbarim" kabi badiiy filmlari bilan tilga tushgan. Yana biri Jonibek Jumanov ustoz izidan borib, Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamentida rejissyor, armiyamizning bugungi kuni haqida videoroliklar tayyorlamoqda.

USTOZLAR mayoq kabidir. Mayoq yo'lovchiga to'g'ri yo'lni ko'rsatgani kabi ustozlar ham yillar o'tsa-da, ibratlari hayoti, ezgu ishlari, yaxshiliklari bilan odamlarni chin hayot kechirishga undaydi...

Oxiratingiz obod bo'lsin, Ustoz!

Furqat ERGASHEV,  
"Vatanparvar"



# Fidoyi ustoz, HARBIY SHIFOKOR

Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyat akademiyasining Harbiy shifokorlar tayyorlash fakulteti boshlig'i tibbiy xizmat polkovnigi Komil Eshquvvatovning bugun kayfiyati ko'tarinki. Shogirdlari – bo'lajak harbiy shifokorlarning 28 nafari joriy yilda tibbiyat yo'nalishidagi xalqaro fan olimpiadasida yuqori o'rnlarni qo'lga kiritdi. Ustoz uchun bu katta sharaf, zahmatli xizmati e'tirofi.

\*\*\*

1986-yil, Samarqand viloyatining Paxtachi tumanidagi shinamgina hovli. Umrini o'qituvchilik kasbiga bag'ishlagan ikki muallim – Ro'ziboy aka va Bo'rigul opani o'g'li Komiljon xushxbab bilan qarshi oldi:

– Otajon, onajon, charchamasdan ishlab kelyapsizlarmi? – salom berish asnosida yangilikni yetkazdi u. – Men ToshMI talabasi bo'ldim!

– Mana buni yangilik desa bo'ladi! – yuziga mamnunlik yugurdi otaning. – Muallimlarning farzandi shunday bo'lishi kerak.

– O'ziga shukur, tabriklayman, o'g'lim, – bolasiga quchog'ini ochdi ko'ziga quvonch yoshlari to'lgan ona. – Kelajaging nurli bo'lsin, ilohim...

Yetti farzand kamolga yetayotgan xonadon shu kuni quvonchga to'ldi. Ota-onada duosi, biling va harakat bilan oldinga intilgan Komiljon yillar davomida o'z yutuqlari bilan yaqinlarini ko'p bor qavontirdi.

## Harbiy shifokorlikka mehr

Toshkent davlat tibbiyat institutining (hozirgi Toshkent tibbiyat akademiyasi) ikkinchi kursini bitirgan Komiljon Eshquvvatov 1988-yil muddatli harbiy xizmatga chaqirildi. Askarlik burchini o'tayotgan yigitning tibbiyat instituti talabasi ekani inobatga olinib, vazifasi tibbiy xizmat bilan bog'landi. Askarlik vazifasini tibbiyat bilan birga olib borgan Komiljonda harbiy shifokor

bo'lish ko'nikmasi shakllandi va bu ko'nikma maqsadga aylandi: "Albatta, harbiy tibbiyat xodimi bo'laman!"

Harbiy xizmatdan ona yurtga qaytgan yigit tibbiyat oliygoching to'rtinchisi bosqichini tamomlagach, Samara shahridagi Tibbiyat instituti qoshidagi Harbiy tibbiyat fakultetida ikki yil tahsil oldi. 1993-yili harbiy tibbiyotni mehr ila o'zlashtirgan qahramonimiz Samarqand garnizonida xizmat boshladi. Bu mustaqillikka erishgan Vatanimiz Qurolli Kuchlari uchun ayni muddao edi. Negaki, boshqa millat vakili bo'lgan ko'plab harbiy shifokorlar istiqlolga ega bo'lgan mammakatimizni tark etishni boshlagan bir pallada Komiljon kabi yosh harbiy shifokorlarga katta umid, mas'uliyat bog'langandi. Komiljon uchun harbiy tibbiyotning zahmatli, mas'uliyatlari, sinovlardan iborat sharaflri yo'li edi bu.

## Zahmatli xizmatning yuksak e'tirofi

Tibbiy xizmat polkovnigi Komiljon Eshquvvatov 30 yildan ziyod faoliyati davomida ko'plab harbiy qism va muassasalarda xizmat qildi. Harbiy qismlarda tibbiyat punkti boshlig'i, Markaziy harbiy klinik gospitalda otryad boshlig'i o'rnbosari, Mudofaa vazirligi tibbiyat boshqarmasida (hozirgi tibbiy ta'minot boshqarmasi)

davolash-profilaktika bo'limi boshlig'i o'rnbosari, Markaziy harbiy klinik gospital boshlig'i o'rnbosari, Toshkent pediatriya tibbiyat instituti Harbiy kafedrasi boshlig'i o'rnbosari, Toshkent tibbiyat akademiyasi huzuridagi Harbiy tibbiyat fakulteti o'quvilmay bo'limi boshlig'i, Qarshi Serjantlar tayyorlash maktabida tibbiy tayyorgarlik sikli boshlig'i, Samarqand tibbiyat instituti Harbiy kafedrasi boshlig'i, Mudofaa vazirligi tibbiy ta'minot boshqarmasi davolash-profilaktika bo'limi boshlig'i kabi mas'uliyatli vazifalar shifokorning bilim va tajribasi oshib borishi, harbiy tibbiyotda munosib

o'tishni istardim. Maqsadim – men ham o'z shogirdlarimga mana shu aziz ustozlar kabi egallagan bilim va tajribamni nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali singdirib borish. Albatta, kelajak yoshlarniki, ular bizdan-da kuchli, bilimdon va malakali harbiy shifokorlar bo'lishi shart. Oldimizga qo'ygan barcha maqsad va imkoniyatlarimiz shunga qaratilgan.

## Oila – muqaddas dargoh

– Umrini o'qituvchilikka bag'ishlagan otam 46 yoshida og'ir dardga chalinib qoldi, – deydi Komiljon aka oilasi, yaqinlari haqida so'z yuritar ekan. – Jarrohlik amaliyotidan so'ng

o'rın egallashiga zamin yaratdi. Faoliyati davomida Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston kabi bir qator davlatlarda malaka oshirdi hamda xalqaro konferensiyalarda ishtiroy etdi.

U qayerga, qaysi vazifaga jalb etilmasin, burchiga sidqidildan yondashdi, sadoqat va mehr bilan xizmat qildi. Tibbiy xizmat polkovnigi Komiljon Eshquvvatovning fidoyi xizmatlari o'z o'rniда yuksak mukofotlarga sazovor bo'ldi. "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash a'lochisi", II va III darajali "Namunali xizmati uchun" ko'krak nishonlari harbiy shifokorning zahmatli xizmatlari e'tirofi, desak, arziydi. Malakali harbiy shifokor 2022-yilda davlatimiz tomonidan II darajali "Salomatlik" ordeni bilan taqdirlandi. Bu unga bildirilgan yuksak ishonch va e'tibor namunasini edi.

## Ustozlik maqomi ulug'

Tibbiy xizmat polkovnigi Komiljon Eshquvvatov ayni paytda Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyat akademiyasi Harbiy shifokorlar tayyorlash fakulteti boshlig'i vazifasida malakali kadrlar tayyorlashga bosh bo'lib kelmoqda.

– Har bitta erishgan yutug'imda mactabdan shu kunga qadar menga saboq bergan, hayotda, harbiy tibbiyotda o'rın topishimga zamin yaratgan ustozlarning o'rni katta, – deydi ustoz shifokor suhabat chog'ida.

– Avvalo, eng ulug' ustoz – ota-onam. Shuningdek, umumta'lim mactabining boshlang'ich sinifida ta'lim bergan ustozim, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Bobonor Nortojiyevning betakror muallim ekanini tilga olishni istardim.

O'ylaymanki, har bir inson hayotida birinchi o'qituvchisi katta o'rın tutadi. Harbiy shifokorlik faoliyatim davomida esa harbiy tibbiyotda ulkan iz qoldirgan, ilmiy ishlar yoqlagan iste'fodagi tibbiy xizmat polkovniklari – Isroil Mamatov, Abduraim Rahimov, Bahromjon Murodov, Arziqul Nurullayev kabi ulug' ustozlarning shogirdlarga bo'lgan mehr-e'tibori, talabchan va fidoyiligini ta'kidlab

13 yil aravachada umr kechirdi. Otamning asosiy qarovchisi onam edi. U otamni parvarishlash, oilani uddalash bilan birga mactabda muallimlik qilardi. Onamning tog'dek saboti bor ekanini oila qurib, teran his qildim. Oilaga sadoqat, yaqinlarga mehr-oqibat ota-onadan bizga meros bo'lib o'tgan. Mening ham to'rt nafar farzandim bor. Rafiqam Jongul bilan ularni o'qimishli, yurt koriga yelka tutadigan o'g'il-qizlar bo'lib ulg'ayishlariga harakat qilyapmiz. O'g'illarim Sherzod va Shuhrat moliya yo'nalishidagi olyighohni tamomlab, bankda faoliyat yurityapti. Qizim Kamola universitet talabasi, bo'lajak muallima. Kenjamiz Dilnoza mactab o'quvchisi, uning ham yuksak orzulari bor. Ayolim Jongul serjant unvoni bilan harbiy xizmatchilar safida faoliyat yuritib, nafaqaga chiqdi. Oila biz uchun hamisha muqaddas bo'lib kelgan. Xizmatdan qaytganimda nabiralarimni bag'rimga bosib, charchog'im chiqadi. O'ylaymanki, inson uchun yaxshi ko'rgan kasbi, sevimli oilasi, mehribon yaqinlari borligi katta baxt. Bizni oq yuvub, oq taragan duogo'yim – onajonim esa 1-oktabr kuni 76 yoshga to'ladi. Fursatdan foydalanih, barcha ustozlarni hamda validamni tavallud kuni va kasb bayrami bilan chin dildan muborakbod etaman!

Komiljon aka haqida kasbdoshlari va shogirdlaridan nafaqat shifokorlik va ustozlik maqomi, balki insoniyligi borasida faqat yaxshi ta'riflar eshitidik: jonkuyar, jamoatchi, xushmuomala, ishonchli do'st, insonparvar, shaxmat va she'riyatga ixlosi baland...

Maqolamiz qahramonining faoliyati va insoniy fazilatları haqida uzoq so'z yuritish mumkin. So'zimizni muxtasar qilar ekanimiz, hurmat va e'tibordagi harbiy shifokor, talabchan va zahmatkash ustoz tibbiy xizmat polkovnigi Komiljon Eshquvvatov hamda barcha aziz ustozlarni ulug' ayyom bilan muborakbod etamiz.

**Zulfiya YUNUSOVA,  
"Vatanparvar"**

O'quv-uslubiy yig'in

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug harbiy qism va muassasalari negizida Mudofaa vazirligi qo'shnin muhandis-texnik tarkibi bilan o'quv-uslubiy yig'in bo'lib o'tdi.

# Mutaxassislar TAJRIBASI BOYITILDI



Unda Mudofaa vazirligi harbiy okrug, qo'shilma, harbiy qismlarning zirhl tank, avtomobil va raketa-artilleriya xizmati boshliqlari, oly harbiy ta'lif muassasalarining professor-o'qituvchilari, raketa-artilleriya qurol-aslahalarini saqlash omborxonalarini hamda zirhl tank qurol va texnikalarini ishlatish bo'yicha mas'ul shaxslar ishtirot etdi.

Hozirgi vaqtida zamonaviy harbiy harakatlarni jangovar texnikalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Dushmanga katta talafot yetkazish, kuchli zarba berish harbiy texnikalar zimmasidagi muhim vazifa bo'lib qoladi. Ammo ushbu texnikalarning doimiy jangovar

shay va soz holatda ushlab turilishini ta'minlash, har xil ob-havo va hududlarda ishlatishning o'ziga xos bo'lgan tomonlarini inobatga olish, ularni doimo soz va xizmatga shay holatda tutish katta kuch, sarf-xarajatlarni talab qiladi.

Mudofaa vazirligi qo'shnida bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilib, so'nggi yillarda harbiy qism va muassasalardagi jangovar texnikalarni saqlash parklari, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini olib borish joylari, texnika va qurol-yarog'ni saqlash omborlarida kapital ta'mir ishlarini olib borilib, zamonaviy shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Bir necha kun davom etgan yig'inda nazariy mashg'ulotlar bilan birga amaliy va ko'rgazmali mashg'ulotlar hamda nazorat-sinov mashqlari o'tkazildi. O'quv-uslubiy yig'in zirhl tank qurol-aslahasi va texnikalar hisobini to'g'ri yuritish, ekspluatatsiya qilish, saqlash, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha mas'ullarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmasini oshirish hamda xizmat samaradorligini yuksaltirish maqsadida tashkil etildi.

Mudofaa vazirining o'rinosi polkovnik Alisher Norboev rahbarligida o'tgan o'quv-uslubiy yig'in Nukus garnizoni ma'naviyat va

Navbatdagi o'quv joyida harbiy yuklarni temiryo'l orqali tashishni tashkil etish, qorovullik xizmatini olib borish hamda texnika xavfsizligi talablariga rioya etish bo'yicha mashg'ulot tashkil etildi. Shartli ravishda yong'in sodir bo'lganda harbiy qism yong'in o'chirish komandasining tezkor harakatlari namoyish etildi.

Shuningdek, harbiy qism qurol-aslaho ombori hududiga hujum qilayotgan shartli qurolli guruhning zarbasini



qaytarish  
bo'yicha  
taktik  
mashg'ulot  
o'tkazildi.

O'quv-uslubiy yig'in rejasiga muvofiq, keyingi o'quv joyi "Nukus" umumqo'shin poligoni bo'ldi. Unda cho'l sharoitida mudofaa operatsiyasini olib borish davomida notanish hududda texnik kuzatuv punkti va ta'mirlash-evakuatsiya guruhining faoliyati ko'rsatilib, har bir obyektni jihozlash, hududga mos ravishda niqoblash hamda u yerda ishni tashkil etish bo'yicha taklif va tavsiyalar berildi.

Navbatdagi manzil – mustaqilligimizning 33 yillik bayrami arafasida foydalanishga topshirilgan Nukusdagi yangi harbiy shaharcha. Harbiy shaharchada Qoraqalpog'iston Respublikasi mudofaa ishlari boshqarmasi, yig'in punkti, Chaqiriluvchilarни harbiy-texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash markazi hamda safarbarlik chaqiruvi rezervi batalyonni joylashgan bo'lib, eng zamonaviy va qulay sharoitlar muhayyo etilgan.

O'quv yig'in yakunida sohaga oid qo'shnida mavjud bo'lgan muammoli savol va murojaatlar tinglanib, ularning yechimi borasida takliflar ishlab chiqildi. Ilg'or harbiy xizmatchilar esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

**Podpolkovnik  
Timur NARZIYEV,  
Shimoli-g'arbiy harbiy  
okrug matbuot xizmati  
boslig'i**



Odam fitratidagi quvvat bilan dunyoni anglashga intilib, ilm ummonlariga tobora chuqr kirib borar ekan, XXI asr hududida ehtiyojlarini o'zi yaratgan vositalar, qurilma va uskunalar bilan qondira boshladi. Bir vaqtlar xabar yetkazish va aloqa qilishda chopar va kabutarlar xizmat qilgan bo'lsa, bugungi kunda ularning o'rnnini axborot texnologiyalari egalladi. Ammo yangi asrda ham xabarchi qushlar haqidagi noyob ma'lumotlar kamyob bo'lsa-da, uchrab turibdi.

# XABARCHI QUSHLAR

## yigirma birinchi asrda

### QAY BIRI TEZROQ VA ISHONCHLI?

Ma'lumot va xabarlarini manzilga qushlar tez yetkazadimi yo odam yaratgan uskunalar? Bu savol dunyo olimlarini qiziqtirgani bor gap.

Kabutar pochtasi bugun ham ahamiyatini yo'qotmagan.

2009-yilda Janubiy Afrikada o'tkazilgan tajriba shuni ko'rsatdiki, 4 Gb sig'imli ma'lumotni kaptarlar 100 km masofaga mahalliy ma'lumotlarni uzatish tarmog'idan tezroq yetkazdi. Kabutar xotira kartasini yetkazish uchun 2 soat vaqt sarfladi. Shu vaqtning o'zida tarmoq orqali ma'lumotlarning atigi 4 foizi uzatildi.

Blogerlar hamjamiyatining vakili Jeff Gerlingning hisob-kitoblariga ko'ra, maxsus o'rgatilgan kaptarlar 500 mil masofada optik tolaga asoslangan zamonaviy gigabitli tarmoqlarga nisbatan ma'lumotlarni tezroq yetkazadi. Gerling bitta qush 1 Tb sig'imli uchta drayverni bema'lol ko'tara olishini inobatga olib, shu xulosaga keladi.

Sent-Luisdan Yangi Shotlandiyaga pochta jo'natmalari bilan uchirilgan kabutarlar tahlili quyidagicha bo'ldi. Ma'lumotlarni drayverlarga nusxalash, kabutarning manzilga uchib borishi va kompyuterqa qaytadan nusxalashga 6 soat-u 53 daqiqa vaqt ketdi. Gigabitli tarmoq orqali bir xil miqdordagi ma'lumotlarni uzatish uchun esa 10 soat-u 54 daqiqa vaqt sarflandi.

### BRITANLAR TAJRIBASI

Yana bir tajriba 2010-yilda Angliyada o'tkazildi. Uning natijasiga ko'ra, kaptarlar 300 Mb sig'imli videotasvir yuklangan flesh-kartalarni

193 kilometr masofaga internetdan ko'ra tezroq yetkazdi. Qushlar topshiriqni 1 soat-u 15 daqiqada bajargan bo'lsa, bu vaqtida videotasvir 24 foiz yuklangan edi.

### KABUTARNING ODAM VA INTERNETDAN FARQI

Bu tajribalarda bitta kamchilik kuzatildi. Internet tarmoqlari yordamida



axborotni bir vaqtning o'zida dunyoning istalgan burchagiga yetkazish mumkin bo'lsa, kabutar aloqasini faqat ikkitga manzil o'rtaida tashkil etish mumkin.

Yevropaning ba'zi mamlakatlarida qushlardan maxfiy ma'lumotlarni yetkazish uchun foydalaniladi. Sababi mikrochip yoki flesh-disklarning qush orqali manzilga yetkazilishi

ma'lumotlarning himoyalanishida ishonchliroq. Ya'ni kompyuterdan ko'ra ko'p marta xavfsiz. Qiziq tomoni shundaki, inson omilidagi yomon xulq – hasad, shaxsiy manfaat, poroxo'rlik va boshqa illatlar qushlarning ishonchli yetkazuvchi ekanini tasdiq etadi.

Yana bir muhim jihat, internet tarmoqlari faoliyati uchun zarur vositalar, rasmiy hujjalarni kerak bo'ldi. Ammo gaplarimiz g'ayritabiiy bo'lsa-da, qushlarning hujjatsizligi, parvoz uchun ruxsatnomalar talab qilinmasligi, istalgan mamlakat hududida uchishi mumkinligi va eng muhim, ular har qanday ob-havo sharoitida manzilga uchib bora olishi olimlarning qiziqtirgan bo'lishi tabiiy.

### DRONGA QARSHI BURGUT

Ma'lumotlarga ko'ra, 2016-yilden Niderlandiya politsiyasi burgutlarni uchuvchisiz uchish qurilmalarini tutishni o'rgata boshladi. Bunda asosan yirtqich qushlarning tabiiy ravishda uchuvchi jismga hujum instincti inobatga olindi. Mashg'ulot paytida burgut panjalariga himoya qoplamlari kiydirildi,



uchuvchisiz uchish qurilmalariga bo'lsa go'sht parchalari joylandi.

2017-yilda fransuzlar ham golland hamkasblaridan o'rnak olib, to'rtta burgut bilan tajriba o'tkazib, ularga D'Artanyan, Atos, Portos i Aramis, deb laqab qo'yildilar. Ammo bu tajriba unchalik muvaffaqiyat keltirmadi.

Britanlar ham harbiy maqsadlarda foydalanish uchun yirtqich qushlarning ov taktikasini o'rganishga qaror qildi. "National Geographic" jurnalining yozishicha, tadqiqot davomida Oksford universitetining zoologiya bo'limi olimlari lochinlarga kichik kameralar va GPS-trekerlarni biriktirgan. Ularning yordamini bilan ornitologlar yirtqichlarning o'ljaga qanday hujum qilishini aniq kuzatishga muvaffaq bo'ldi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ov qilishda lochinlar mutanosib navigatsiya usulidan foydalanadi. Olimlar harbiylarga o'z ishlanmalaridan lochin taktikasi yordamida uchuvchisiz uchish qurilmalarini tutib oladigan dronlarni yaratishda foydalanishni taklif qildi.

### MUXBIR KABUTARLAR

Yigirmanchi asrning 70-yillarda yapon jurnalistlari uzoq orollarga xizmat safarlarini uysushtirganida, o'zi bilan pavroz qiluvchi "xodimlar"ni ham olib yurgan. Ular mobil aloqalar yo'q davrda tahririyatga muhim xabar va yangiliklarni kabutarlar orqali jo'natgan.

### 18 KUNDA 2 700 KM

2013-yilda xitoylik bir milliarder ajoyib qobiliyatga ega golland kaptarini sotib oladi: bu qush 18 kunda 2 700 km masofani bosib o'tadi.

### AQSH TADQIQOTLARI

2019-yili AQSh Markaziy razvedka boshqarmasi bir qator hujjalarni maxfiylik darajasidan chiqardi. Bu hujjalarda sobiq SSSR hududida razvedka olib borish yoki u tomonga sensorli qurilmalarni yetkazib berishga mo'ljallangan xabarchi qushlar haqida ham ma'lumotlar bor. Xususan, odamlar uchun yopiq bo'lgan MRB muzeyida saqlanayotgan bo'ynida ko'chma fotoapparat bo'lgan kabutar surati ommaga e'lon qilindi. Fotokamera qush tanasiga bog'langan tasma og'irligi (5 gramm) bilan 40 grammni tashkil qilgan.

Aniq manzillar o'rtaida parvoz qilishi kerak bo'lgan kabutarlar bilan o'tkazilgan sinov natijalari MRBni qoniqtirmaydi. Sababi sinov vaqtida bir necha qush qimmatbaho kameralar bilan yo'qoladi.

1976-yilgi yana bir hujjal MRB sobiq SSSR hududida takroriy josuslik operatsiyasini o'tkazish dasturini ishlab chiqqanidan dalolat beradi. Shu yil o'tkazilgan dala sinovi natijasi maqsadga muvofiq emas, deb topilgan.

### UCH YIL HIBSDA SAQLANGAN KABUTAR

Yana bir necha qiziqarli ma'lumotlar Hindiston, Pokiston va Xitoy bilan bog'liq.

2020-yilda ijtimoiy tarmoqlarda Hindiston

politsiyasi joususlikda gumon qilingan Pokiston kaptarini qamoqdan ozod qilgani haqida xabarlar tarqaldi. Xabarlarga ko'ra, 2016-yil oktabr oyida qo'lga olingen qush panjasida tahdidli maktub bo'lgan. Uch yil hibsa saqlangan kabutarni tekshirish vaqtida hech qanday shubhali narsa topilmaydi. Kaptar pokistonlik Habibulla degan baliqchiga tegishli bo'lgan.

Kaptarning oyog'iga yozilgan raqamlarni munozarali hududda jangarilar uchun mo'ljallangan maxfiy kod bo'lsa kerak, deb o'ylashgan. Habibullaning aytishicha, qushlar poygasi chegaraoldi qishloqlarida juda ommalashgan, "mahbus" kaptar qushlar poygasi ishtirokchisi bo'lib, oyog'idagi raqamlar egasining telefon raqami ekan.

#### XITOY KAPTARI HINDISTONDA

2023-yili Hindistonda yana bir xabar tarqaladi. Mumbay politsiyasi Xitoy foydasiga joususlik qilganlikda gumon qilib, bir kaptarni qo'lga oladi. Shundan so'ng qush sakkiz oy davomida veterinariya klinikasida saqlanadi. Uning oyog'idagi biri misdan, ikkinchisi alyuminiydan yasalgan ikkita halqa va patlaridagi xitoy yozuviga o'xshash belgilari qushning tutilishiga sabab bo'lgani aytildi. Rasmiylar bu qushni xitoyliklar razvedka ma'lumotlarini yig'ish uchun yuborgan deb taxmin qilgan. Ma'lum bo'lishicha, bu qush Tayvan orolidan kaptarlar poygasida qatnashgan va u parvoz vaqtida yo'nalishdan chetga chiqib, tasodifan Hindistonga uchib kelgan.

Hayvonlarga nisbatan shafqatsizlikning oldini olish jamiyat shifokorlari uni 31-yanvar kuni qo'yib yuborgan.

#### XITOY KAPTARI QOZOG'ISTONDA

2020-yil yanvar oyida Sharqiy Qozog'istonda qanot va dum qismida qizil rangda Xitoy iyerogliflari yozilgan kaptarlar paydo bo'lgani haqida xabarlar tarqaldi. Fuqarolar bu masala yuzasidan Katon-Qarag'ay milliy bog'iga murojaat qildi.

Ma'lum bo'lishicha, ilmiy bo'lim xodimlari 2015-yildan beri bunday qushlarni kuzatib, o'rganib chiqqan va bir nechta ilmiy maqolalarni nashr etgan. To'rt yil avval Bekalka qishlog'i aholisi o'lgan kaptarni topib oladi. Qushning o'ng oyog'ida qora rangdagi uzuk va gologramma bor edi. Chap oyog'ida kichik trapsmitter



o'rnatilgandi. Qushning qanotlarida esa xitoy yozuvi iyerogliflari chizilgandi.

Bu haqda Qozog'iston Ekologiya vazirligining Yovvoyi tabiat qo'mitasi xodimi Saken Dildahmet shunday yozadi:

*"Biz Xitoy kaptarlarini o'rganishni boshlaganimizda, ular haqiqatan ham juda muhim ma'lumotlarning tashuvchisi ekani ma'lum bo'ldi, ammo maxfiy ma'lumotlar emas, balki sportga tegishli ma'lumotlar".*

oldidagi Olma-ota va Sharqiya Qozog'iston viloyatlariga uchib kelgan. O'tgan yili tutib olingen qushning qanotida "sport kaptari" so'zi va uning laqabi yozuvi bo'lgan.

#### SUN'iy KABUTARLAR

Xitoy nashrlarining yozishicha, mamlakatning kamida beshta viloyatida kuzatish uchun kaptar ko'rinishidagi dronlardan foydalilanadi, ularni oddiy kaptarlardan farqlash qiyin. Robotkaptarlar haqiqiy qushlar kabi qanot qoqadi, parvoz qiladi, pastga sho'ng'iydi. Uning haqiqiy qushga o'xshashi tufayli hatto tabiiy kaptarlar undan cho'chimaydi.

Mazkur uchar qurilmalar Sian shahrida joylashgan Shimoli-g'arbiy politexnika universitetida ishlab chiqarilmoqda. Har bir Dove droni kamera, GPS-datchiklar va ma'lumotlarni uzatish tizimi bilan ta'minlangan. Bundan tashqari, robotkaptarlar radarlardan ham himoyalangan. Bu sun'iy kaptarlardan mamlakat fuqarolari ustidan nazorat qilishda foydalanan hamda ularning bir qanchasini fuqaro aviatsiyasi ehtiyojlari uchun sotib olish rejalashtirilayotgani aytildi.

Dove loyihasi ustida ish olib borayotgan muhandislar guruhi a'zosi Yan Vensinning so'ziga ko'ra, yangi texnologiya dalalarda sinovdan o'tkazilmoqda. "Ishonchimiz komilki, mazkur texnologiyadan yanada yirik miyqosda foydalansa bo'ladi. Unda fuqaro sohasida ham, harbiy sohada ham qator ustunliklar mavjud", deydi Vensin.

Xabarchi qushlarning bugungi kuni haqida hozircha shu gaplar.

Balki, yaqin kelajakda ular to'g'risida olamshumul xabarlarni o'qib qolsak, ajab emas.

# Kul bosqan chotg'ar

Volidayi muhtaramam  
Boqiyaxon Rahmonberdi qizining  
yorgin xotirasiga bag'ishlayman.

(Davomi. Boshi o'tgan sonda)

*Kitob varaqlaydi saksoningiz ham,  
Sasingiz sehrini suyib kelar flag.  
Avliyo degani Sizdarsiz, onam,  
Sizdaylar jamlansa, yaraladi xalq...*

\* \* \*

Sharofatning haj safariga ketgan eri Abdulaziz ham juda yorug'lik kun ko'rgani yo'q. U paytlar hozirgidek tayyor samolyot qayoqda? Katta bir karvonga qo'shib, poy-u piyoda oy-oylab, ne mashaqqatlar ila haj ziyyoratiga yetib borilardi. Haj amallarini ado etgach, Andijonda qolgan ikki farzandi, homilador ayolini o'ylab, yurtga qaytish taraddudiga tushdi. "Musofir bo'limguncha musulmon bo'lmaydi" degan hikmatli naql rost ekan. Saudiya borguncha avval Qashqar, Afg'oniston, keyin Pokiston, Turkiya mamlakatlari ko'p mashaqqatlar chekkan bo'lsa, qaytish safari undan ham og'irroq bo'ldi. Qay yurtda bir yil, qay birida olti oylab qolishga to'g'ri keldi. Nihoyat, Afg'onistongacha yetib kelganda Vatanga o'tishning sira iloji yo'qligi ayon bo'idi. Shundoq chegaradan o'tsak... uyog'i O'zbekiston deya ko'p umidlanishi. Ammo chegaralar tamoman berkilib, odam tugul chumolini o'tkazish ham mumkin bo'lmaydigan kunlar kelgan edi. Baribir umidini uzmagan Abdulaziz imkon topilar, deya Afg'onistonda yetti yil qolib ketdi. Bu yetti yilda yer bilan tillashish ilmini olgani uchun bo'sh yotgan yerda kattagina bog' yaratib, yerli aholi orasida ancha tanildi. Odamlar orasida bu joy "Musofirbob" nomini oldi.

O'zbekistonga o'tishning mutlaqo iloji yo'qligi ayon bo'lgandan keyingina Abdulaziz bu katta bog'ini o'sha joydagi qo'shnilariga qoldirib, "musofirlirk peshonamda hamon shu kun bitilgan bo'lsa, Payg'ambarimiz Muhammad Mustafa sollallohu alayhi vasallam yashagan Madina shahrining musofiri bo'lay", deya yana Saudiya Arabistoniga qaytishga qaror qildi.

Sarsloniklar ichra qirq yoshdan o'tgunicha Andijonda qolgan oilasidan umid uzmay, tulday yashadi. Yillar o'taverdi. Hayot doim ham sening istaklaringga bo'yusunavermas ekan. Taqdir taqozosi bilan qirq yoshdan o'tganinda hamrohlari maslahati bilan safardosh bir qarindoshining o'zidan anche yosh qiziga uylandi. Yosh Mahbubaxon unga sakkiz farzand tug'ib berdi. Bittasi vafot etib, yetti nafarini tarbiyalab, voyaga yetkazdilar. Eng katta orzusi Madinayi munavvarada yashash bo'lgan bu e'tiqodi baquvvat odamga turli sabablar bilan o'zi niyat qilgan Madinaga yetish nasib qilmay, Saudiya Arabistonining Toif shahrida manzil-makon qildi. Ammo ayoli Mahbubaxonga "Madinayi munavvarada yashasam, vafot etganimda muborak boqiy qabristoni so'nggi manzilim bo'lsa", degan orzusini ko'p aytardi. Shunda ayoli:

- Niyat qilaversangiz, albatta, orzungiz ro'yob topadi, Xudo har mushkulni yechuvchi, sidqidildan qilingan duoning ijobatini berguvchi qudrat egasi axir, - deb yupatardi.

Abdulazizning yoshi ulg'ayganimi yoki darbadarliklar horitdimi, birmuncha vaqt Toifda ishlari

yurishmay qoldi. Shunda ayoli Mahbubaxonning chevarligi asqatdi. Qo'ligul Mahbubaxon shu qadar bejirim liboslar tikardiki, uni Toifdag'i barcha do'kondorlar jon deb qabul qilardi.

- Qizlarim ham yonimda ish o'rganib, sotish uchun tayyor liboslar ancha ko'payib qoldi. Madinayi munavvarada vatandoshlar ko'p, derdingiz. Borib ular bilan aloqa bog'lasangiz, yomon bo'lmasdi, sayyoohlari ko'p shaharda savdo yaxshi bo'ladi, - deya maslahat soldi bir kuni ayoli.

Madinaga borishni hamisha orzu qilib yurgan Abdulaziz ota uchun bu maslahat juda yoqib tushdi. Muborak bu shaharda istiqomat qilayotgan andijonlik hamyurtlar bilan shu taxlit tanishib, andijonlik Muhammадali o'g'li Ibrohimjon bilan ayniqsa qadrondoshlib oldi. Shunday qilib, Toif-u Madina shahri o'tasida bordi-keldilar boshlanib ketdi.

Ibrohimjon otasi Muhammадali mudarris vafotidan keyin o'gayligini sira bildirmagan onasi Umriniso va uka-singillariga bosh bo'lib, oila boshqaruvini zimmasiga olgan edi. Toiflik Abdulazizni otaday ko'rib, ko'p holda undan maslahatlar olib yurdi. Yillar o'taverdi. Dadasining vafotida sakkiz yosh bo'lgan inisi Husayinbek allaqachon uylanish yoshiga yetdi. Ibrohimbek endi Husayinbekni uylash taraddudiga tushgani haqida qadrondi Abdulaziz otani boxabar etdi.

- Vatandosh do'stimming o'g'li mening ham o'g'lim. Ishni boshlayvering, nima yordam zarur bo'lsa, men tayyorman, - dedi u.

Abdulaziz otaning bu tantiligi Ibrohimonga kuch-quvvat bag'ishlaganday bo'ldi. Shu kuniyoq oila a'zolarini jamladi.

- Toiflik qadrondomiz Abdulaziz otaning qizigasovchi bo'lsak, nima deysizlar? - dedi u katta singillari Malikaxon va Sa'diyaxonga. - Abdulaziz vatandoshning ayoli juda qo'ligul chevar. Qizlarini yoniga olib, Toif-u Madina do'konlariga liboslar yetkazib turadi. Qolaversa, Abdulaziz otaning Madinayi munavvaraga bilan bog'lanish istagi shu qadar kuchlikli, o'ylashimcha, bizning sovchiligidizni juda mammun qabul qiladilar.

Bu taklif onasiga ham, singillari va kuyovlariga ham ma'qul keldi. To'y bo'lib o'tdi. Andijonlik ikki musofir oila qatida Husayinbek va Naimaxondan iborat yana bir andijonlik yangi oila paydo bo'ldi.

Olti farzandining beshinchisi bo'l mish Naimaxonning Madinayi munavvarada istiqomat qilayotgan andijonlik vatandoshiga kelin bo'lishi Abdulaziz otaning hayotida muhim bir burilish yasadi, desa ham bo'ladi.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning tarixiy masjidlari, muborak ravzalari joylashgan bu ulug' shaharda yashash uning yurak tubidagi hech ketmas orzusi edi. Shu qudashilik sabab Madinayi munavvaraga tez-tez kelish, shu yerlik vatandoshlar bilan yanada yaqinroq bo'lish osonlashdi. O'g'il-qizlarining barini uylab-joylab bo'lgandan keyin esa ayoli Mahbubaxon bilan Madinaga ko'chib keldi. Bir necha yil shu yerda yashab, vafot etdi. O'zi orzu qilganidek, ulug'vor boqiy qabristoni uning so'nggi manzili bo'ldi.

\* \* \*

1992-yil, iyul. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qilganidan so'ng o'tgan bir yildagi juda ko'p yangiliklarning biri qatag'on yillari Vatanni tark etishga majbur bo'lgan musofirlarning yurtga qaytishi uchun imkon berildi. Bunday yangilikni o'n yillab kutib yurganlarning yuragiga quvonch o'rmaladi.

Madina shahrida istiqomat qilayotgan Husayinbek Muhammадali o'g'li ham opasi va turmush o'rtog'i bilan bir paytlar Andijonning Hakan qishlog'idan ketib, Saudiya Arabistonida qo'nim topgan qaynotasi Abdulaziz otaning qadim xonadonini izlab keldi. Hakan qishlog'i hududiga kiribqo birinchi uchragan odamdan Jahongirbek Abdulaziz o'g'li xonadonini surishtirishdi.

- Rahmatli qaynotamning ismi Abdulaziz edi,  
- salom-alikdan so'ng gap boshladi Husayinbek.  
- Jahongirbek degan o'g'li qolgan bu yerda.  
Aytishlaricha, hovlisida keksa olmurut daraxti bo'lgan ekan. Olmurutli hovli, desa, hamma taniydi, der edilar.  
- Avvalo, xush kelibsizlar, inim! - dedi yoshi ulug'ligi yuz-ko'zidan sezilib turgan kishi. - Olmurutli hovli dedingiz-a?

- Ha, ha, - umidlandi Husayinbek.

- Olmurutli hovli haqida eshitganim bor. Keyingi vaqtida kamyob bo'lib ketgan bu daraxting meva, hatto shoxi ham dorivor deyishadi. Kimning tomog'i og'rib qolsa, o'sha hovliga borib, mevasi yoki shoxidan olib kelib, sutga qaynatib ichadilar. Biznikilar ham bir necha marta bu hovlididan najot tilab borgan. Ammo bu hovli Jahongirbek emas, Abdumannob va Yorqinbek deganlarniki edi. Qani, boraveraylik-chi, balki men bilmagan Jahongirbek bordir.

Mehmonlarni Yorqinbek otaning o'zi kutib oldi. Voqeа oydinlashib, madinaliklar izlagan hovli aynan shu ekani ma'lum bo'ldi. Abdulaziz ota safarga ketgan kunlarda ayolining qornida qolgan o'g'il Yorqinbek bo'lib chiqdi.

- Men singlingizman, - dedi o'zini Naimaxon deb tanitgan suluvgina ayol. - Bu kishi Husayinbek, mening turmush o'rtog'im, sizning kuyovingiz.

Xotiralar so'zlandi, sog'inchlар aytildi. Bir-biridan juda olis ikki davlatning ko'ngillari bir-biriga juda yaqin odamlari - aka-singil-u amma-jiyanlar goh yig'lab, goh shukrona keltirib, diydorlashdilar.

- Sizni dadam rahmatli jahon kezgan kunlarimda tug'ilgan bolam, deya Jahongirbek deb yurardi, akajon, - dedi Naimaxonim.

- Onam esa "dadasining qaytar yo'llari yorqin bo'lsin", deya ismimni Yorqinbek qo'yan ekan, - dedi mehmonning "aka" deganidan bir to'lqinlanib olgan Yorqinbek. - Onam Sharofatxon dadamiz ketganidan keyin biz uchov farzand bilan juda qiynalib yashadi. Aslida o'sha davrlarda hamma uchun ham yashash oson bo'lmagan. Ayniqsa, yurtdan ketib qolgan dadam kabilar "boy unsurlar" degan yorliq bilan qora ro'yxatga tushganlari uchun ham ularning bolalari, qarindosh-urug'lariiga juda qiyin bo'lgan. Onam "boy unsur"ning xotini bo'lgani uchunmi, ishning eng



og'iri, pulning eng ozi tegardi bizga. Kunduz dalada paxta terib, tunda ko'sak chuvirdik. Hukumatdan biror yordam, yaxshilik kutishdan bebahra ishlardi onam. Uning o'ta irodali va mehnatkashligidan tashqari dadamizga bo'lgan sadoqati ham juda ulug' edi. Men buni dadamizni hamisha hurmat bilan eslashi, bizga uning yaxshi fazilatlarini so'ylashdan sira charchamasligidan bilardim. Onamning hikoyalarini eshitaverib, dadamni ko'rмаган bo'lsam ham, akam Abdumannob va opam Davlatxon kabi ularni yaxshi ko'rib, sog'inib ulg'aydim.

Besh o'g'il, uch qizni tarbiyalab voyaga yetkazgan Yorqinbek otaning farzandlari Naimaxonimni "ammajon", deb izzatladi. Uzatilgan qizlar Nasibaxon, Hafizaxon va Zuhrxonlarning har biri bir kundan uylariga chaqirib, mehmon qildi.

Yorqinbek otaning to'lqinlanib aytgan hikoyalari Naimaxonning emas, Husayinbekni ham hayajonga soldi. O'zining dadasi va Andijondagi qarindoshlar haqida avvalgidan ko'proq o'yay boshladи. "Ular bilan men ham albatta, uchrashaman", deya ko'ngliga tugib qo'ydi. Qaynog'asi Yorqinbek bilan maslahatlashib, dadasining jiyanolari Boqiyaxon va Muhammadxonning, yana bir-ikki qarindoshlarining manzil-makonini surishtirdi. Ularni tanigan bir odamga Madina shahridagi uy va telefon raqamlarini berib qo'yishni iltimos qildi.

Bu galgi uchrashuvlari rafiqasi Naimaxonning qarindoshlar bilan bo'lsa, keyingi tashrif albatta, o'z yaqinlari bilan bo'lishini ko'ngliga tugdi.

\*\*\*

"Ulug' Rossiya"ga "o'z ixtiyor" bilan qo'shilgan paytda O'zbekiston aholisining bor-yo'g'i ikki foizigina savodli edi xolos". Bu gap - O'zbekistonga yil sari emas, kun sari oyog'i o'rashib borayotgan sho'rolar humumatining yolg'on matoga o'ralgan axboroti edi.

Ammo Sharqning ilm-u ma'rifiati dunyoni lol goldigan allomalar Vatani ekanini olam yaxshi biladi. Axir IX-X asrlar allomalarini jamlagan Xorazm Ma'mun akademiyasi faoliyati "Ikkinchchi Renessans"-ni boshlab bergani bilan mashhur bo'lgani hammaga ayon-ku.

O'zbekistonni mutlaq mustamlakaga aylantirish uchun jon-jahdi bilan kirishgan sho'ro tuzumining eng katta qo'rquvi ham tafakkuri keng ilmlilarning ko'pligi edi. Shu qo'rquv bois elning ziyoli qatlamin yo'qotish payiga tushgandilar.

Bosqinchilarning qatlom qatag'onlari tobora chuqurlashib borardi. Sho'rolar dahosi V. Leninning "Din xalq uchun afyundir", degan kaltabin shiori ostida

masjidlar faoliyati keskin qisqartirildi. Ilm peshvolari esa turli tuhmat va nohaq ayblovlari bilan qamoqqa olinib, uzoq Sibirga surgunlar boshlanib ketdi.

Shahar miliitsiyasida kichik bir vazifada ishlovchi Mirzaqosim Rahmonberdi qori dadani juda hurmat qilar, yoppa qatag'ondan uni asrash uchun goh-goh uni xufiya rejallardan ogohlantirib turardi. Axir Andijonning har besh xonardonidan birida islom ilmi namoyandalari bor edi-da. Ularning ko'pchiligi allaqachon hibsga olinib, surgunga haydalib ham bo'lgani achchiq haqiqat edi.

Rahmonberdi otaning keyingi eshitgan xufiya xabari o'zi, o'g'li Abdulaziz, inisi Muhammadali va uning o'g'li Ibrohimjonlarning ham hibs ro'yxatiga olingani haqida bo'ldi.

- Aholining ziyoli qatlamiga qaratilgan zulm, musibat yoyilib boryapti, yurtni tark etishdan boshqa iloj yo'q shekilli, - dedi Muhammadalini maslahatga chaqirgan akasi.

- Shunday, menimcha ham shoshilmasak bo'lmaydi, aka.

- Yaxshisi, ertagayoq tunda yo'lga chiqinglar, zulmkorlarning "qulqoq" qilish surgunida musofirlik azyatiini chekib, xo'rlikda kun ko'rgandan ko'ra kulfat yog'ilgan yurtni vaqtincha tark etgan ma'qul.

- Siz-chi?

- Men ketolmayman. Oysha kelinoyingiz og'iroyoq. Boqiyaxon qizim esa bor-yo'g'i to'qqiz yoshda. Qochqin kunlar mashaqqatlariga chidashi qiyin. Yaxshisi, o'g'lingiz Ibrohimjon va shogird jiyaningiz Abdulazizni olib, siz yo'lga tushing. Ularga bosh bo'ling, bu ikki iste'dodli surriyotimizning ilmi ham, yosh umri ham isrof bo'lmasin. Sizga ishonaman.

- Sizni yolg'iz qoldirolmayman, aka.

- Inim, hozir tortishadigan payt emas. So'zimni ikki qilmay, safar taraddudini ko'ring. Ikki o'spirinni sizga, sizni esa Xudoga topshirdim.

\*\*\*

Davr esa kundan kun qatag'on zarblaridan sinib borardi. Ukasi va o'g'lini qochirib yuborgan Rahmonberdi qori allaqachon qora ro'yxatga tushgan, uni hademay hibsga olishlari aniq bo'lib qolgandi.

Jonday jigarlari va o'g'lini qatag'ondan qutqarib, eson-omon safarga kuzatib olgan Rahmonberdi ota endi ayoli va qizini baloli kunlardan asrash haqida o'yay boshladi.

Peshin namozini o'qib qaytdi-yu, ayoli Oyshaxonga tansiqroq taom tayyorlashni buyurdi. Kechki tanovuldan keyin esa homilador ayolini vaziyatdan voqif etib, oy-kuni yetib farzandi tug'ilsa, isminni Muhammadxon qo'yishni tayinlab, dedi:

- Aytishlaricha, ilmlilar, boylar "xalq dushmani" degan yorliq ostiga olingan ekan. Men tufayli sizga va tug'ilajak farzandimga ham azyiatlar kelishi tayin. Meni to'g'ri tushuning. Sizdan rozimat, siz ham rozi bo'ling. Boshingiz ochiq, nikohimdan chiqardim sizni.

Oysha ona vaziyatlar zalvaridan boshi berk ko'chaga kirib qolgan, ilojsizlikdan majbur reja tuzib, xotiniga taloq bergan, so'zlayotganida-ko'zlar afsus-nadomatga to'la erini to'g'ri tushundi. U ham yig'ladi. Ertasiga er-xotin ajrashganini ayolning keyingi xavfsizligi uchun atayin birikki qo'shniga oshkor qildilar. Oyshaxon ota uyiga qaytdi.

\*\*\*

Qizining dabdurustdan ko'ch-ko'roni bilan uyga qaytishi Ro'ziboy halfani dovdiratib qo'ydi.

- Qizingiz biror yoqmaydigan fe'l qilibdimi?

- Bu haqda indamadi. Yaxshilik bilan javobimni berdi, deydi, - sekin so'zladi ayoli.

- Bunaqasi ketmaydi, - yuzida g'azabi aks etdi uning.

- Ertaga o'zim borib gaplashay. Qizimizning ikkinchi ro'zg'oridan ham qaytib kelishi menga ma'qul emas. Mahalla-ko'y nima deydi? Siz-u men el ichida qanday bosh ko'tarib yuramiz? "Hammaga dars o'qigan Ro'ziboy halfa yolg'iz qiziga tarbiya berolmabdi", degan isnodni ko'tarolmayman. Yo'q, chaqiring Oyshaxonni. Oilasini tiklaymiz.

Oyshaxon yig'lamsirab turib bo'lgan voqeani aytib berdi. Yurtdagi notinchliklardan o'zi ham xabardor Ro'ziboy halfaning taqdirda tan berishdan boshqa iloji qolmadidi.

- Bo'pti, unda o'ksinmang, qizim. O'zi biz bilan qolgan Mahbuba qizingiz sizni sog'inib yig'laydigan, ovqat yemay, uyga kirib oladigan odat chiqargandi. Bir qaraganda, kelganining yaxshi ham bo'ldi. Biz ancha keksayib qoldik. O'g'lim Madaminjon hali yosh. Unga ham bizdan keyin siz g'amxo'rlik qilasiz, - deb o'zini ham, qizini ham yupatganday bo'ldi.

- Umringiz uzun bo'lsin, dadajon, - Oyshaxon ro'molining uchini ko'ziga bosib, tashqariga yo'naldi.

Yo'q, Ro'ziboy halfanining umri uzun bo'ladi. Keyingi kurnlardagi xijolatliklar, xastaliklar sababmi, bir yilga yetmay olamdan o'tdi. Bir umr inoq, ittifoq yashagan ayoli ham erining vafotidan o'n sakkiz kun o'tib, bandalikni bajo keltirdi. Oyshaxon yetti oylik go'dagini quchoqlab, ukasi Madaminjon-u undan bir yosh kichik qizi Mahbubaxon bilan qaqshab qolaverdi.

(Davomi bor)

Zamira RO'ZIYEVA,  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi



# IKKI ORZUM BIR KUNDA USHALDI

Maqsadi aniq insonning qadami shaxdam bo'ladi. Izlagan imkon, xohlamagan esa bahona topishi barchamizga ayon. Hayot yo'llarida turli to'siqlar chiqsa-da, maqsadni emas, unga boradigan "yo'l"ni o'zgartirganlar bugunning qahramonlari. Ular kam gapirib, amalda ko'proq ishlarni qilishga qodir insonlardir.

Harbiy xizmatchilarning yangi xizmatni o'tash joylari, jumladan iqlim sharoitlari og'ir bo'lgan uzoq garnizonlarga ko'chib o'tishi natijasida ularning farzandlari ta'lim muassasalarini doimiy ravishda o'zgartirib turishiga to'g'ri keladi, bu esa ular olayotgan bilimlar sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Podpolkovnik Hojiakbar Ahadovning farzandi Sherli Abdujalilovga bu holat juda yaxshi tanish, uning taqdirda ham ana shunday voqeliklar yuz bergan. Shunday bo'lsa-da, bilimlarni puxta egallashga intilgan Sherli oliy harbiy ta'lim muassasasiga o'qishga kirib, ayni kez 3-bosqichda tahsil olyapti.

## Bolalik

Maktabda o'qib yurgan kezlarimni ko'p eslayman. Bitta maktabda oxirgacha o'qish imkonni bo'limgan. Hatto boshqa maktabda o'qimayman, deya ota-onamga xarxasha qilgan kunlarim bo'lgan. O'gil bolalarda moslashish qiyinroq kecharkan. Chunki notanish



muhit, begona ustozlar, begona sinfdoshlar... Har bir joyning o'ziga yarasha liderlari bo'ladi. Ular bilan til topishib ketish vaqt talab qiladi. Bu orada fanlarni ham o'zlashtirish kerak. O'qituvchilarning dars berish usullari ham turlicha. Xullas, shunday holatlar sabab maktabimni ko'chirishlariga qarshi bo'laverardim. Bolalik qilganman, harbiy xizmatchi bo'lgani bois xizmat faoliyatini turli joylarga ko'chirish otama bog'liq emasligini tushunmaganman. Bugun o'sha davrlarni eslab, xursand bo'laman. Yurtimizning



## Harbiy akalarimga havas

Dam olish kunlari bolalar istirohat bog'iga borgan bo'lsa, otam meni o'zi xizmat qilayotgan harbiy qismiga olib borardi. U yerda harbiylarning texnikalar bilan ishlashini kuzatish menga zavq bergan. Barcha harbiy akalarim menga mehribonlik ko'rsatib, xohishlarimga yo'q demas edi. Shunda otam bo'y sunuvdag'i

harbiylarning har biriga alohida to'xtalib, ularning kuchli tomonlarini, qahramonligini aytib berardi. "Agar sen ham mana shu akalarimgedek bo'lishni xohlasang, sport bilan munzazam shug'ullanishing muktabda doim a'lo baholarga o'qishing kerak", deganlari hech esimdan chiqmaydi. Otam hikoya qilayotgan harbiy xizmatchi akalarining harakatlari katta hayajon, ishtiyoyq bilan kuzatardim. Haqiqatan ham ular kuchli, o'z ishining ustasi edi. Hikoya boshqa harbiy xizmatchi haqida boshlanganida navbatdagisini kuzatardim.

Ikkita xorijiy tilda bemalol so'zlasha oladigan harbiylarning ham borligi meni ikki karra hayratlantirardi. Demak, barchasini uddalasa bo'larkan, deya o'zimga motivatsiya olardim. O'qishga va jismoniy mashg'ulotlarga bo'lgan ishtiyoyq kuchaya boshladi. Uyga qaytgan zahoti qo'limga kitob olib, o'qishga kirishib ketardim. Men aqlan va jismonan kuchli bo'lishim kerak, degan fikr o'sha harbiy akalarimga havas qilib o'zimga singdirgan edim. Harbiy qismiga qilingan sayohatlarim ko'p bo'lgan. Har safar borganimda harbiylik kasbiga bo'lgan qiziqish yanada kuchayaverardi.

## Ushalgan orzu

Bolaligimdan harbiy xizmatchi bo'lishni va otam bilan bitta joyda xizmat qilishni orzu qildim. Yaxshi niyatda boshlangan har ishda xayr bo'larkan. Bugungi kunda ikki orzum ham ushaldi. Otam faoliyat yuritayotgan Chirchiq oly tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtining 3-bosqich kursantiman. Bilim yurtida yaratilgan shart-sharoitlar a'lo darajada. O'quv xonalarining zamonaliv trenajyorlar bilan jihozlanganligi hamda malakali mutaxassislar tomonidan berilayotgan bilimlar kelajakda malakali ofitser bo'lib yetishishimda asos bo'lib xizmat qiladi.

Hammaga ham nasib etavermaydigan imkoniyatga ega bo'lishimga sababchi bo'lgan otamga rahmat aytaman. Men ham xuddi otam singari Vatanimga sadoqat bilan xizmat qilishga va'da beraman!

**Sherzod SHARIPOV,  
"Vatanparvar"**

## Malaka

# O'QUVCHILAR TARBIYASIDA MUHIM OMIL

Surxondaryo viloyatidagi umumta'limga muktabalarining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari ishtirotida bir kunlik o'quv-uslubiy yig'in o'tkazildi.

Termiz shahridagi 1-ixtisoslashtirilgan muktab-internatida bo'lib o'tgan ushbu tadbir Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi qo'mondonlik, Termiz harbiy prokuraturasi va Surxondaryo viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi bilan hamkorlikda tashkil etildi. Unda Prezidentimizning 2022-yil 2-martdagi "Vatan

tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi hamda Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 8-noyabrdagi "Ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi



qarorlarining mazmun-mohiyati yetkazildi. Bundan tashqari, mazkur fan o'qituvchilariga dars mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi va unga qo'yilgan talablar hamda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani rahbarlarining malakasini oshirish tartibi to'g'risida zarur ma'lumotlar berildi.

Kuning ikkinchi yarmida Mudofaa vazirligining tashabbusi bilan yaratilgan yangi namunadagi harbiy-vatanparvarlik targ'ibot o'quv sinfi (chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani xonasi)ni jihozlash tartibi, AK-74 qurolining tasnifi, taktik-teknik xususiyatlari hamda saf nizomi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.

Tadborda umumta'limga muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani mashg'ulotlarining sifatli va samarali olib borilishi o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim omil ekani ta'kidlandi.

**III darajali serjant  
Akbar AHMEDOV  
Termiz garnizoni**

Millat ko'zgusi

# NOMLAR QA'RIDA HAQIQATLAR

Xalq yoki millat kecha tug'ilib, bugun Yer yuzida paydo bo'lib qolmaydi. Biron-bir elat xalq tarixining intihosi bo'lishi mumkin (*masalan, Amerika hindularining ayrim urug'lari Yevropa mustamlakachilari tomonidan batamom qirib tugatilgan*). Ibtidosi esa moziyning aql bovar qilmas va shuur ilg'amas darajadagi chuqur qa'rida bo'ladi.

Kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixidan ma'lumki, muayyan xalq yashash hududi, til xususiyatlari bir-biriga yaqin bo'lgan ijtimoiy jihatdan mushtaraklashuvi va qovushib ketuvidan tarkib topadi. Biron falokat ro'y bermasa yoki Amerika qit'asidagi hindularni qirgandek, qasddan qirib tashlamasa, hech qaqib yoki el-elat izsiz yo'qolib ketmaydi. U boshqa bir nom ostida yoki biron xalq tarkibida yashashni davom ettiradi. Bunga tarixda

misollar juda ko'p. Eramiz boshlarida Apennin yarim orolida favqulodda qobiliyatli lotin qabilasi yashagan. Lekin Yer yuzida hozir lotin nomli xalq yo'q. Ular Rim imperiyasi hududidagi shimaldan ko'chib kelgan germanlar (*varvarlar*) tarkibiga singib ketganlar. Binobarin, Apennin yarim orolidagi italyan xalqi tarkibida yashamoqdalar.

Shuni alohida qayd etish kerakki, lotinlar Yer yuzida o'z nomini abadiy

goldirganlar. Ularning yozuvi hamon lotin alifbosи deb yuritiladi. So'zlari atamalar sifatida ilm-fan va san'at sohalarida qo'llaniladi, Yer kurrasidagi butun boshli materikning nomi Lotin Amerikasi deb ataladi. Lotinlar Yevropaning shimolidan bostirib kelgan german qabilalarini ularning nutqiga qarab varvarlar deyishgan. Ularning bu oddiygina so'zi ham (*varvarizm*) sotsiologik terminga aylangan. "Varvarizm" atamasi hatto tilshunoslik sohasiga ham kirib borgan.

Xalqlarning nom olish tarixlari juda ham qiziq. Masalan, rus xalqining nomi daryo nomi bilan bog'liq. Ros-Dnepr daryosining irmog'i. Dastlab bu nom atrof-hududga nisbatan ishlatalgan. Bora-bora shu atrofda yashovchi sharqiy slavyanlar ros deb atala boshlagan, Novgorod, Moskva, Suzdal, Yaroslavl va Vladimir knyazliklarining knyazlari o'rtaida o'zar, "Ulug' knyaz" nomini olish uchun muttasil kurash borar edi, "Ulug' knyaz" degan nomga ko'proq Moskva knyazi sazovor bo'lar edi. Mana shu kurashlar na territorial tafovutlar tufayli sharqiy slavyanlarga nisbatan "velkoruss", "maporuss", "beloruss" kabi atamalar paydo bo'lgan. Bu knyazliklarning chekkasida yashovchilar esa "ukrainlar" deb yuritila boshlagan. Ya'ni "у края" (*chekkada*), "открыны" (*chekkaliklar*) hozirgi Ukraina xalqining nomiga aylangan "Kiyev Rusi" atamasi esa keyinchalik tarixchilar tomonidan to'qib chiqarilgan nomdir. Sharqiy slavyanlar Ivan Grozniy zamoni dan boshlab "rus" degan nom olgan.

## O'zbek urug'i

Dastlab bu nom turkiy urug'larning biri qatorida Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'atit turk" (XX asr) asarida tilga olinadi. Major (*venger*) geografi va tarixchisi Herman Vamberining yozishicha, 1150-yillarga oid siyosiy ma'muriy hujjatlarda ham "O'zbek" atamasi uchraydi. Mo'g'ullar bosqinidan keyin (XIII asr) o'zbek elati tarix maydoniga chiqadi, ya'ni butun Turon yurtining siyosiy-ma'muriy, harbiy va madaniy hayotida faol qatnasha boshlaydi. Oltin o'rda hukmdori O'zbekxonga shu urug' nomi ism qilib qo'yilgan. Ba'zi tarixchi olimlar o'zbek xalqi tarixini O'zbekxon nomi bilan bog'lamoqchi bo'ladi. Vaholanki, O'zbekxongacha ham o'beklar bor edi. Xonning ota-onalarini faxrlanib, farzandiga "O'zbekxon" deb ism qo'yganlar. Xalq nomi bilan bolaga ism qo'yish Sharq xalqlari uchun yangilik emas (*Qozoqboy, Qirg'izboy, Nayman ena, O'zbekoyim, Sartboy va boshqalar*). Amir Temur zamonda O'russxon degan lashkarboshi bo'lgani tarixiy manbalarda qayd etilgan. Shayboniyxon beklaridan birining ismi ham O'russbek bo'lgan.

*Keldilar borchha O'rusbek qoshiga, Bo'ldilar chokar aning xizmatiga.*

Tarixda shunday zamonalr ham bo'lganki, el-yurt ma'lum bir hukmdorning yoki sulolaming nomi bilan ham yuritilgan. O'ktoy ulusi, Jo'ji ulusi va hokazo. Ba'zi manbalarda o'zbek tilining chig'atoy tili, o'zbek adabiyotining chig'atoy adabiyoti deyilishi ham shundandir.

Mehnat-u musibatda kishilar birlashadilar, mo'g'ullar asorati vaqtida o'zbek urug'-qabilalarining yaqinlashib ketishi tezlashdi. Siyosiy-ma'muriy harbiy ishlarda o'zbeklarning ta'sir doirasi kuchaygach, o'zbek tili turkiy ellar o'rtaida yetakchi tilga aylandi.

Amir Temur zamona kelib chig'atoy ulusi doirasi kengaydi. Turon, Xuros hayotining barcha sohalaridagi mavqeい kuchaydi. Uning tili ham Volga bo'yidan to Hindistongacha, Kaspiy dengizidan to Xitoygacha cho'zilgan. Muhammad Shayboniyxon dargohida malik-ul shuaro bo'lgan Muhammad Solih uning haqida quydagilarni yozadi:

*Ul kishi bordur Shayboniyxon,  
Holi Shayboniydur-u Mahidiy zamон.  
Holi oning yeri Turkistondur,  
O'zbek eliga muazzam xondur.  
Xon Abulxayrg'a farzand erur.  
Johining shohiga payvand erur.*

Abulxayrxon kim edi? Abulxayrxon (1412-1468) Muhammad Shayboniyxonning bobosi edi. U o'zbeklar xonidir, Shayboniy tuyqusdan davlat tepasida paydo bo'lib qolgani yo'q.

Shu o'rinda "sort (sart)" istilohi xususida: "sort" juda qadimiy so'z, sanskrit (*qadingi hind*) tilida shaharda istiqomat qiluvchi, hunarmandchilik va savdogarlik bilan shug'ullanuvchi kishi degan ma'noni anglatadi. Alisher Navoiy o'zining ikki o'zbek fors-tojik tillarini qiyoslashga bag'ishlangan "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida sort so'zini keltiradi.

Muhammad Solih ham o'zining "Shayboniyroma" dostonida sort so'zini ishlatalgan. Marv qo'rg'onini ishg'ol etish manzarasini tasvirlar ekan, yozadi:

*Kimki oning bila borib erdi,  
Borchha bir yo'li urushqa kirdi.  
Vahmdin sort chiqa olmadni hech.  
Ko'chaband ichra, bas-e ayladi pech.*

Tutqich bermay zamonalr o'taveradi, davr-u davron surib hukmdorlar, o'zini ma'qullatib turli tuzumlar ham o'taveradi. Xalqlar esa u yoki bu nom bilan hamisha yashayveradi.

**Xosiyat BEKMIRZAYEVA,  
filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori**

## Huquqiy profilaktika

# O'RGANISHLAR davom etmoqda

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Toshkent viloyatida o'rganishlar olib borilmoqda.

Jarayonda energotejamkorlikni yanada oshirish maqsadida viloyatdagi yirik iste'molchilarining energiya samaradorligini ta'minlash borasidagi faoliyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, Yangiyo'l tumanidagi bir qator ishlab chiqarish korxonalarida energiya tejamli qurilmalar joriy qilingani, o'z navbatida mahsulot ishlab chiqarishdagi energiya sarfi va uni iqtisod qilish masalalari o'rganildi.

Shuningdek, kichik elektr taqsimlash stansiyalarining ishlash tartibi, ijtimoiy soha obyektlarida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik va energiyani iqtisod qiluvchi zamonaviy standartdagi uskunlardan foydalanish ahvoli ko'zdan kechirildi.

Bo'ka tumanida elektr tarmoqlari korxonasi, favqulodda vaziyatlar va mudofaa ishlari bo'limlarida energiya samaradorligi, jumladan energiya manbalaridan foydalanish borasidagi ishlarga e'tibor qaratildi. Shu asnoda energetika sohasidagi islohotlarning mazmun-mohiyati bo'yicha mutasaddilarga atroflicha tushuntirishlar berildi.

Bundan tashqari, ichki ishlar organlari tuzilmalarida jinoylatlarni jilovlash, huququzarliklarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga urg'u berildi. O'rganishlarda barcha mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berib o'tildi.

Bu kabi amaliy tadbirlar respublikamiz bo'ylab barcha harbiy prokuratura organlari tomonidan jadal davom ettirilmoqda.

**Adliya polkovnigi Qahramon ISROILOV,  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy  
prokurorining o'rincbosari**

# MO‘TABBAR IKKI FAYOL

**Ular ko‘p. Go‘zal ayyom  
arafasida ulardan ikkitasini sizga  
tanitgim keldi. Ularning hech  
qanday unvonlari yo‘q. Ular  
o‘qituvchilarim, oddiyina ayollar,  
qishloq maktabining o‘qituvchilarini,  
ko‘nglimizga tog‘dek orzularni  
joylagan aziz ustozlarim.**



## BIR QIZ BO‘LARDI

...Bir qiz bo‘lardi. Nihoyatda go‘zal qiz edi. Chilvir sochlari uzun-uzun, yuzi sutga chayib olingandek oppoq, tiniq, qoshko‘zlari popukdek, labining bir burchida kichik kulgichi bor, tishlari sadafdek, tekis. Uning ham dugonalari bilan o‘ynagisi kelar, qiqir-qiqir kulgilariga qo‘shilgisi kelardi. Ammo qizning uka-singillari ko‘p edi. Kasalvand onasiga ko‘makchi edi.

Bir qo‘lida bola, orqasidan yana birtalayi ergashib yuradigan qizni dugonalari unchalik ham o‘yinga qo‘shgilari kelmasdi. Uning zerikishga hech vaqt yo‘q edi. Shunday bo‘lsa ham tengdoshlari bilan gaplashgisi, o‘ynagisi kelardi. Uy yumushlarining ham oxiri-keti ko‘rinmas edi. Qiz yo‘lini topdi. Uka-singillarini yi‘g‘ib, ularga dostonlar o‘qib bera boshladi. Uyda faqat doston kitoblar bor edi: “Kuntug‘mish”, “Shirin bilan Shakar”, “Go‘ro‘g‘li” ... Asli u tug‘ma pedagog edi.

Rus ustalar tomonidan qurilgan, o‘t yoqilganida birdaniga uch uyni ham isitadigan katta pechka ustiga o‘tirvolib, dostonlar o‘qir, tinglovchilar uka-singillaridan tashqari qo‘ni-qo‘shni bolalari hisobiga yana ko‘paygandi. Ba‘zan qotib-qotib kulib, ba‘zan ko‘zda yosh bilan, jang sahnalarida ko‘zlari yonib tinglardilar.

Doston tinglab bo‘lishgach, uka-singillariga uy yumushlarini taqsimlab berar, ular yugurgilab opalari tayinlagan ishni

bajarishardi. Dostonning sehri, kuchi shunchalar edi.

Qiz o‘qishda tengdoshlaridan oqsar edi. Bir kuni tarix o‘qituvchisi O‘sar Ahmedov uni doskaga chaqirdi. O‘rnidan turgan edi, sinfdoshlari kulib yuborishdi. Bitta sho‘xrog‘i: “Ustoz, undan darsni emas, uka-singillarini so‘rang”, degan edi, battar kulgi bo‘ldi. Qip-qizarib ketgan qizga ustozni bir qarab qo‘ydi-da, bolalarga shunday dedi: “Bekor kulyapsiz, Shahodatni otasi Qarshi shahridagi pedinstitutda o‘qitmoqchi. Bu kulgilaringiz uchun hali uyalib qolasiz...”

Shahodat, ha, uning ismi Shahodat edi, o‘qituvchisining gapidan shu qadar ruhlandiki, astoydil o‘qishga kirishdi. Avval haqiqiy uch baholar, bora-bora a’loga o‘qib ketdi. U haqiqatan ham Qarshida o‘qidi. O‘zi o‘qigan maktabda nemis tili muallimasi bo‘lib ishladi. Negadir dars taqsimotida unga darslar kam berilar edi. Xafa bo‘lsa-da, yelkasida uchta bolani yolg‘iz katta qilishdek mas‘uliyati bo‘lsa-da, ko‘zyoshlarini jimgina yutib, ishini sidqidildan bajarar edi. O‘quvchilar fan olimpiadalarida yutib, yuzini yorug‘ qilganida, yuz-ko‘zlari kulib, yanayam go‘zallashib ketardi.

Uning bitta paltosi, plashi va uzoq yillar kiyilgan etigi bor edi. Yangi kiyimlar olish... Uch bola yeyman, ichaman, kiyaman deb turganida o‘ziga ep ko‘rmasdi.

O‘scha bolalar ham ulg‘aydi. Mashaqqatli hayot sinovlariga bardosh berdi. 58 yoshida og‘ir xastalikka chalindi. To‘rt yil

kurashdi... Dard kuchli ekan. Uni so‘nggi yo‘lga kuzatish uchun odamlar daryodek oqib keldilar. Kimlargadir oddiy bir o‘qituvchi, kimgadir hayoti bilan ibrat bo‘lgan, kimlarnidir ko‘nglida oliy dargohlarda ta‘lim olishdek ezgu maqsad-la ruhlantrigan va hamma uchun poklik, sadoqat timsoli bo‘lgan Ayol!

Nemis tili muallimasi, bolalarga xorijiy tildan tashqari insoniylikdan ham go‘zal saboqlar bergen bu ayol, Shahodat Zikrillayeva mening katta opam edi.

## HASSA TAYANGAN KEKSA AYOL

Bu yo‘llar menga juda qadrond. Yillar o‘tgani sari bu yo‘llarga oyog‘im yetishi kamayib boryapti. Men baribir toshkentlik bo‘lolmasam kerak, ammo endi nushkentlik ham bo‘lolmayman. Nushkent Qashqadaryo viloyatining kichikkina bir qishlog‘i. U yerlarni tark etganimda 17 yoshda edim. Universitetda o‘qish, journalist bo‘lish orzusida poytaxtga kelgan edim. Toshkentni sevib qoldim. Bolalikdan shu shaharda qolib ketishimni yuragim sezardi.

Olisdan ko‘rinib turadigan yuksak tog‘lar, daryolar, azim tut daraxtlari, tongi quyosh nurlaridan shudringlarda yaltillab ketadigan yashil paxta dalalari, qaynoq tuproqlar yo‘llar, derazadan tashqariga oqib ketguday toshib turgan oq pillalar, ikki tomoni qator tutlardan iborat yo‘llar,

oftobni orqasiga yashira oladigan kichikkina ko‘l, qip-qizil baliqchalar o‘ynolab yuradigan chashmalar ko‘zlarimdan ko‘nglimga ko‘chganiga bir necha o‘n yillar bo‘ldi.

Yo‘llar haqida gapi rayotgan edim. Yo‘zing so‘nggi kunlari. Qishloq uyular tugagan joydan dalalar boshlanar edi. Hozir yo‘lning chap tomonidagi dala o‘rnida uylar qad rostlagan. O‘ng tomoni ochiq. O‘sha o‘ng tomonidan dala ichkarisiga qarab ikki-uchta uylar bor. Balaligimda o‘sha uylar oldidan necha bor o‘tib-qaytganman. Ular orasida biri judalar qadrli. U uyda mening adabiyot o‘qituvchim Qo‘ysinoy Qosimova yashaydi, aziz muallimam, aziz ustozim yashaydi. Bu uy oldidan hech beparvo o‘tmadim. Ko‘zlarim to‘la mehr, patila sochlarmi to‘g‘rilab, ust-boshimdagи changlarni qoqib, ochiq darvozasidan bir bo‘ylab, ko‘rsam-ko‘rmasam o‘z-o‘zimcha ichim yorishib o‘tardim.

Yo‘llar haqida gapi rayotgan edim. Kuzning ilk kuni. Ziyoratdan qaytayotgandim. Katta yo‘lga chiqquncha horidim. Endi yosh emasman, yillar o‘z hukmini o‘tkazyapti. Daraxt soyasida tin olib, qishloq yo‘liga qarab o‘tirdim. Dala ichkarisiga qarab ketgan yo‘l chekkasida hassaga tayanib, olislarga tikilib turgan keksa ayolga ko‘zim tushdi. Yuragim orziqib ketdi. Uni uzoqlardan ko‘rib tanidim. Qachon, qachondan beri hassaga tayanib

goldi?! Dardlar tayantirdimi? Erining o‘limi og‘irlik qildimi? Farzand dog‘imi? O, shafqatsiz yillar...

Maktabda eng chiroyli jihozlangan xona adabiyot sinfxonasi edi. Yorug‘, keng, devorida rasmlari ko‘p, kattakatta derazalaridan shovullagan arg‘uvonlar ko‘rinib turadigan fayzli, ruhga orom beradigan bir xona. Ana shu xonada partalar oralab, qaddini tik tutganicha, bir maromda, sokin va tiniq ovozda adabiyot o‘qituvchimiz darslarni tushuntirardi. Talabchan, hech kimni e’tiborsiz qoldirmaydigan, tuturuqsiz mashqlarimizni ham erinmay o‘qib chiqib, fikrini bildiradigan fidokor bir muallima.

Uni ko‘p eslayman. Va juda ko‘plab adabiyot muallimlarini birlashtiradigan muhim bir jihat bor: bolalar hayotida iz qoldirish, ular ko‘ngliga ulkan orzular joylash! Mening bugungi kunim ham orzulardan boshlangan. So‘zga muhabbat uyg‘otgan adabiyot muallimim Qo‘ysinoy Qosimovadan boshlangan.

Bu birgina mening emas, ko‘plarning yo‘lidir, so‘zni qadrlagan, adabiyotsevarlar yo‘li.

Aziz o‘quvchilar, ayni shu kunlar ustozlarimizni yo‘qlab, ko‘ngillarini tog‘ qadar yuksaltirishimiz mumkin bo‘lgan lahzalardir. Ular ham omonat. Bugun nimagaki erishgan bo‘lsak, ularning ham hissalarini borligini unutmaylik.

Mening tanlovim – obod Vatanim!

# SAYLOV TIZIMLARI

## ULARNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI



Keyingi yillarda demokratik islohotlarni chiqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilish maqsadida parlament hamda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishga, saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga parlament hamda mahalliy vakillik organlarining faoliyatida siyosiy partiyalarning rolini yanada kengaytirish, vakillik organlariga saylangan deputatlar va senatorlarning parlament hamda mahalliy vakillik organlari faoliyatidagi mas'uliyati va faolligini oshirish, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi faoliyatini takomillashtirish, samaradorligini oshirish, saylov komissiyalari tizimini maqbullashtirish va markazlashgan saylov organlari tizimini shakkantirish, ularning professional tayyorgarligi oshirilishini ta'minlash zaruriyatini yuzaga keldi.

Saylov jarayoni muayyan huquqiy me'yorlar, Konstitutsiya va saylov qonunchiligidagi belgilangan qoidalar asosida amalga oshiriladi. Saylovlarini tashkil qilish amaldagi saylov tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Saylov tizimining asosiy vazifasi esa xalq xohish-irodasini namoyon etish va hokimiyat organlarining samaradorligini ta'minlashdan iborat. Bu me'yorlar saylovoldi kurashning barcha ishtirokchilarini yagona elektoral qoidalarga amal qilgan holda faoliyat yuritishga majbur etadi. Garchi turli davlatlarning saylovga doir qonunchiligi mamlakat taraqqiyotining tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy xususiyatlarini ifoda etib, bir-birdan farqlansa-da, bu saylov tizimlarini bir necha turga ajratish imkonini beradigan umumiylamoyollar mavjud. Odatda, saylov tizimi uch xil – majoritar (*muqobil*), proporsional (*vakolati*) hamda aralash saylov tizimlariga bo'linadi.

Majoritar saylov tizimi (*fransuzcha majoriteye* – ko'pchilik) asosini "ko'pchilik tamoyili" tashkil etadi. Bunday tizim odatda, bir mandatlari okruglarda amal qiladi va eng ko'p ovoz olgan nomzod g'olib hisoblanadi.

Majoritar saylov tizimida nomzod yoki partiya g'alaba qozonish uchun saylovchilar ko'pchiligining ovozini olishi lozim. Kamchilik ovozlarini olsa, nomzod yoki partiya hech qanday mandatga ega bo'lolmaydi.

Majoritar saylov tizimida mamlakatning barcha saylovchilar okruglarga teng miqdorda bo'linadi va har bir okrugdan bittadan deputat saylanadi. Jahan tajribasida bunday tizimning uch turi mavjud bo'lib, shartli ravishda nisbiy ko'pchilikka, mutlaq ko'pchilikka va malakali ko'pchilikka asoslangan tizim, deb atash mumkin.

Nisbiy ko'pchilikka asoslangan majoritar tizimda saylov o'tkazilgan okrugda ovoz berish natijasida raqibiga nisbatan ko'proq ovoz olishga muvaffaq bo'lgan nomzod saylangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida majoritar saylov tizimining ushbu turidan foydalilanildi. (*Saylov kodeksi. 96-modda. Bir mandatlari saylov okruglari bo'yicha ovoz berishda ishtirot etgan saylovchilarining boshqa nomzodlarga nisbatan ko'proq ovozini olgan nomzod saylangan hisoblanadi*).

Mutlaq ko'pchilikka asoslangan majoritar tizim qo'llanilganda, saylanish uchun saylovda ishtirot etgan saylovchilarining oddiy, ya'ni shunchaki ko'pchilik ovozini olish kifoya emas, bunda, albatta mutlaq (50 foiz + 1 ovoz) ko'pchilik ovoz to'plash lozim bo'ladi.

Malakali ko'pchilikka asoslangan majoritar tizimda saylanish uchun zarur bo'lgan ovozlarining miqdoriga nisbatan qo'yiladigan talab juda yuqori (*masalan, ovozlarining uchdan ikki qismi miqdorida*) bo'ladi. Amaliyotda saylovning birinchi bosqichida ovozlarining bunday miqdorini olishning iloji yo'q, shu sababli bo'lsa kerak, ushbu tizim demokratik mamlakatlarda deyarli qo'llanilmaydi.

Agar nomzodlardan birortasi ham 50 foizdan ko'p ovoz ololmasa, u holda ikkinchi tur saylov o'tkaziladi. Ikkinci turda faqat eng ko'p ovoz olgan ikki nomzod qatnashadi. Majoritar saylov tizimi proporsional saylov tizimidan ko'ra universal bo'lib, nafaqat vakillik organlariga saylovlardan, balki prezident saylovlarida ham qo'llash mumkin. Majoritar saylov tizimining yagona kamchiligi, uncha katta bo'limgan partiya va harakat vakillarining davlat idoralariga saylanish imkoniyatini toraytirib qo'yadi.

Majoritar saylov tizimida saylovchilar siyosiy partiyadan nomzodi ko'rsatilganlarga ovoz berishda nafaqat uning siyosiy partiyaga mansubligi, siyosiy platformasini, balki shaxsiy, ishchanlik sifatlarini va boshqa fazilatlarini ham baholaydilar. Bu tizim deputatlikka nomzodlarni saylovchilarga yaqinlashtiradi, ular o'zlariga ma'qul kelgan nomzodlarga ovoz berish orqali huquqlarini namoyon etadi.

Majoritar saylov tizimi AQSh, aksariyat Lotin Amerikasi mamlakatlari, Fransiya, Angliya kabi rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyatlari qo'llanib kelmoqda. Olimlarning fikricha, majoritar saylovlarining yana bir afzalligi parlament ichida ko'pchilikni yuzaga chiqarishida, shu asosda barqaror hukumat tuzilishida namoyon bo'ladi.

Masalan, Fransiyada saylovlarining majoritar turi qo'llaniladi. Parlamentda ko'pchilikni tashkil qiluvchi partiyalar koalitsiyasi uchun har doim bir xavf mavjud bo'lib, koalitsiyadagi partiyalar o'rtaida ichki kelishmovchiliklar yuzaga kelishi oqibatida parlament tarqatib yuborilishi mumkin. Shuning uchun deputatlar ilgari o'zlarini saylovchilarga taqdim etgan dasturlari doirasida faoliyat olib borishga majburdirlar. Parlamenti tarqatib yuborish xavfi undagi "ko'pchilik" koalitsiyasini yanada jipslashib, babs-munozarali masalalarni tinch yo'l bilan hal qilishga da'vat etadi.

Parlament tarqatib yuborilgudek bo'lsa, deputatlar saylovchilarining oldiga kelib, saylovoldi dasturlari bilan yana bir marta o'rtoqlashishga majbur bo'ladi. Majoritar saylovlarining jamiyatni jipslashirish va muvozanatni saqlash kabi ijobji jihatlarga ega ekanligini fransuz siyosiy tajribasi yaqqol tasdiqlaydi.

Majoritar saylov tizimi demokratik jamiyatda eng optimal variant hisoblanadi. Majoritar saylov har bir siyosiy partiyani ta'sir doirasini kengaytirishga va o'z mafkuraviy arsenalidan to'liq foydalanishga yetaklaydi. Chunki ushbu partiya boshqa partiyalarga nisbatan hech bo'Imaganda, bir ovoz ko'proq olishga intilishi natijasida siyosiy sahnada bir-biriga muxolif bloklar vujudga keladi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi ikki qutbli siyosiy partiyalar tizimi boshqa siyosiy tizimlardan ko'ra samarali siyosiy qarorlar chiqarishda va mas'uliyatni to'liq his etuvchi hukumatlar tuzishda ijobiy natijalar berishini tasdiqlaydi.

Ikki qutbli ko'ppartiyaviylikda bir tomon siyosiy hokimiyatni amalga oshiradi, ikkinchi tomon esa konstruktiv muxolifatga aylanadi. Elektorat esa hokimiyatni hukmron partiya qo'lida qoldirishi yoki muxolifatga ishonib topshirishi mumkin. Elektoral raqobatning ushbu dinamikasi partiyalarni siyosiy spektrning markaziga tomon intilishga majbur qiladi va saflarida ekstremistik g'oyalarning tarqalishiga yo'l qo'yaydi. Bundan tashqari, agar favqulodda holatlar yoki bo'hronlar yuz berib qolguday bo'lsa, muxolif tomonlar umum davlat manfaatlari yo'lida o'zaro murosa qilgan holda yagona dastur tuzib chiqishlari yoxud koalitsion hukumat tashkil qilib, xavfli vaziyatdan chiqib ketishlari mumkin.

Proporsional saylov tizimidan ko'pmandaltili saylov okruglarda tashkil etilgan saylovlarda foydaniladi. Bunda saylovchi vakillik organlariga ko'rsatilgan bitta nomzod uchun emas, balki saylov birlashmasi nomzodlar ro'yxatiga ovoz beradi. Natijada tegishli organdagi o'rinali partiya olgan ovoziga qarab, proporsional ravishda taqsimlanadi.

Proporsional saylov tizimi uncha katta bo'limgan saylov bloklari va siyosiy partiyalarning vakillik organlaridan joy egallashiga imkon beradi. Amaliyotning ko'rsatishicha, bu holat parlamentdagi siyosiy kuchlarning kichik guruhlarga parchalanishiga olib keladi. Natijada parlament faoliyati "falajlanib" qolishi ehtimoli paydo bo'ladi. Bunday holatning oldini olish uchun o'ziga xos "cheгараловчи то'сиқ" о'rnatiladi. Ya'ni partiyalar saylovchilar ovozining ma'lum foizini to'plashi talab etiladi.

Mazkur me'yor O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 961-moddasida quyidagicha belgilangan: "Yagona saylov okrugi bo'yicha Qonunchilik palatasiga saylov natijalarini aniqlash va deputatlik o'rinalarini taqsimlash tartibi.

Yagona saylov okrugi bo'yicha saylanadigan Qonunchilik palatasining deputatlik o'rinalari ushbu saylovda ishtirot etgan saylovchilar ovozlarining yetti va undan ko'proq foizini to'plagan siyosiy partiyalar o'rtaida taqsimlanadi.

Yagona saylov okrugi bo'yicha saylanadigan Qonunchilik palatasining deputatlik o'rinalari saylovda ishtirot etgan saylovchilar ovozlarining yetti va undan ko'proq foizidan kamroq'i yoqlab ovoz bergan siyosiy partiyalar o'rtaida taqsimlanishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan ushbu moddaning uchinchisi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Agar saylovda ishtirot etgan saylovchilar ovozining yetti va undan ko'proq foizini faqat bitta siyosiy partiya to'plagan bo'lsa, unda deputatlik o'rinalari saylovda saylovchilarining eng ko'p ovozini to'plagan ikkinchi siyosiy partiyaga ham taqsimlanadi".

**Mayor Abduqodir OTABOYEV,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
katta o'qituvchisi,  
s.f.f.d. (PhD), dotsent**

# Diyora JAHON REYTINGIDA HAMON PESHQADAM

14-20-oktabr kunlari poytaxtimiz dzyudo bo'yicha harbiylar o'rtasidagi jahon championatiga mezbonlik qiladi. Ayni paytda sportchilarimiz unga qizg'in hozirlik ko'rmoqda. Xalqaro dzyudo federatsiyasi esa "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlaridan so'ng sportchilarning yangilangan reytingini e'lon qildi. Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari tashkil etgandi. Ular orasida MVSM vakili Diyora Keldiyorova muxlislar ishonchini oqlagandi, ya'ni jahon championatida kumush medalga sazovor bo'lindi. Diyora o'tgan yili Qatarda o'tgan jahon championatida ham finalga chiqib, kumush medalni qo'lga kiritgandi. "Katta dubulg'a" turnirlarida g'oliblikka erishgan birinchi ayol dzyudochi sifatida yurtimiz sporti tarixidan joy olgan Diyorani va MVSM dzyudochilarini endi oldindan yurtimizda o'tkaziladigan harbiylar o'rtasidagi dunyo birinchiligi kutmoqda. Musobaqa 14-20-oktabr kunlari o'tkaziladi. Ayni paytda sportchilarimiz poytaxtimizdagi federatsiya bazasida unga qizg'in hozirlik ko'rmoqda. Mashg'ulotlarni MOQ raisi o'rinnbosari, mamlakat dzyudo federatsiyasi raisi Azizjon Kamilov ham kuzatib boryapti.

Harbiylar o'rtasidagi jahon championatida "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlaridan so'ng sportchilarning yangilangan reytingini e'lon qildi. Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakili Diyora Keldiyorova reytingda hamon peshqadamlik qilmoqda.

## Shaxmat



## SHAXMATCHILARIMIZ SOVRINDOR

Vengriyaning Budapesht shahri mezbonlik qilgan 45-Butunjahon shaxmat olimpiadasi yakunlandi. Unda ishtirok etgan O'zbekiston erkaklar terma jamoasi bronza medalga sazovor bo'ldi.

Qayd etish joiz, shaxmatchilarimiz ikki yil muqaddam Hindistonda o'tgan shaxmat olimpiadasida championlikka erishgan edi. Bu galgi murosasiz bahslerda g'oliblik Hindiston terma jamoasiga nasib etdi. Ikkinci va uchinchi o'rinni egallagan AQSh hamda O'zbekiston terma jamoalarini yakunda bir xil, ya'ni 17 ochkoga ega chiqdi. AQSh grossmeysterlari qo'shimcha ko'rsatkichlar bo'yicha 2-o'rinni egallagan bo'lsa, O'zbekiston terma jamoasi a'zolari 11 ta turning to'qqiztasida g'alaba, bittasida durang va bittasida imkoniyatni boy bergen tarzda bronza medalni qo'lga kiritdi.

O'zbekiston qizlar terma jamoasi uchun mazkur shaxmat olimpiadasi omadli kechdi, chunki qizlarimiz o'z tarixida ilk bor kuchli 12 talikdan joy

Olimpiya o'yinlarida yurtimiz sharafini himoya qilgan dzyudochilarimiz ham ishtirok etishi kutilmoqda. Yakuniy tarkib ayni kunda qizg'in davom etayotgan yig'in so'ngida rasman e'lon qilinadi.

Xalqaro dzyudo federatsiyasi "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlaridan so'ng sportchilarning yangilangan reytingini e'lon qildi. Ushbu reytingda o'zbekistonlik 13 nafar dzyudochi kuchli 20 talikdan o'rinn egalladi.

Shubhasiz, "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlarigacha -52 kg vazn toifasida reytingda yetakchilik qilgan MVSM vakili Diyora Keldiyorova hamon peshqadam. Diyora Olimpiadadagi g'alabasidan keyin yetakchilikni yanada mustahkamlagan. Shuningdek, 4 yillikning eng nufuzli musobaqasida shohsupaga ko'tarilgan polvonlarimiz Muzaffarbek To'rabolayev (-100 kg, 4-o'rinni) hamda Alisher Yusupov (+100 kg, 8-o'rinni) ham yuqori o'rindan joy olishgan. MVSM vakillaridan esa Davlat Bobonov (-90 kg) 12-pog'onani, Gulnoza Matniyazova (-70 kg) 19-o'rinni egallagan.

oldi. Bu 170 ga yaqin davlat orasida, albatta, yuqori natija.

Shaxmatchilarimiz individual yo'nalishlarda ham sovrinlarga ega chiqdi: 1-taxtada Nodirbek Abdusattorov kumush, 4-taxtada Shamsiddin Vohidov oltin, ayollar musobaqasining 5-taxtasida o'ynagan Nodira Nodirjonova esa kumush medalga sazovor bo'ldi.

Yana 2 yildan so'ng dunyoning eng kuchli grossmeysterlari mamlakatimizda jam bo'lishadi, chunki 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga O'zbekiston mezbonlik qiladi. Vengriyadagi 45-Butunjahon shaxmat olimpiadasining yopilish marosimida ikki yildan so'ng O'zbekistonda o'tkaziladigan shaxmat olimpiadiasi bayrog'ini Nodirbek Abdusattorov qabul qilib oldi.

Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida 45-Butunjahon shaxmat olimpiadasida munosib natijalarga erishgan shaxmatchilarimizni tantanali kutib olish marosimi tashkil etildi. Kuy-qo'shiqlarga, chiroyli tilaklarga ulanib ketgan marosimda 45-Butunjahon shaxmat olimpiadasida bronza medaliga ega chiqqan shaxmatchilarimizning har biriga "BYD Chazor" avtomobilari "Prezident sovg'asi" sifatida taqdirm etilgani e'lon qilindi.

## SHOHSUPA (xabarlar)

### YENGIL ATLETIKA

Shveysariyada yengil atletika sport turining uzunlikka va langarcho'pga tayanib sakrash yo'nalishlari bo'yicha nufuzli "Golden Fly" musobaqasi bo'lib o'tdi. Unda qatnashgan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakili Anvar Anvarov uzunlikka sakrash bahslarida 7,87 m (+0,1 m/s) natija qayd etib, shohsupaning uchinchi pog'onasidan joy oldi. Avstraliyada o'tkazilgan Butunjahon yengil atletika federatsiyasining platinum darajasidagi "TCS Sydney Marathon" marafonida esa mutaxassisligi rus tili va adabiyoti o'qituvchisi bo'lgan 54 yoshi hamyurtimiz Dilfuza Allayarova ham qatnashib, oltin medalni qo'lga kiritdi. Hamyurtimiz masofani 2 soat 55 daqiqa 53 soniyada bosib o'tishga muvaffaq bo'ldi.

### SPORT KURASHLARI

Birlashgan kurash dunyosi (UWW) sportchilarining yangilangan reytingini e'lon qildi. -74 kg vazn toifasida Olimpiya o'yinlari championligiga erishgan erkin kurashchimiz Razambek Jamalov reyting peshqadamiga aylangan. -57 kg vazn toifasida Olimpiadaning bronza medaliga sazovor bo'lgan hamyurtimiz G'ulomjon Abdullayev esa reytingda 4-o'ringa ko'tarilgan. Yana 7 nafar o'zbekistonlik atlet reytingda TOP-20 talikdan joy olgan.

### MUAY-TAY

Tailandning Bangkok shahrida o'tkazilgan muay-tay bo'yicha yoshlar o'rtasidagi jahon championatida O'zbekiston terma jamoasi a'zolari muvaffaqiyatlari qatnashdi. Muaytaychilarimiz 2 ta oltin, 6 ta kumush, 10 ta bronza, jami 18 ta medal jamg'arib, umumjamoa hisobida 112 ta davlat orasida 10-o'rinni egalladi. Shuningdek, Tailanda "ONE Friday Fights 80" turniri ham o'tkazildi. O'zbekistonlik muay-tay ustasi Mavlonbek Qahhorova myanmalik Tuay Tit Vin raqiblik qildi. To'liq davom etgan jangda Qahhorov ochkolar hisobiga g'alaba qozondi.

### TENNIS

Tojikistonning Dushanbe shahrida o'tkazilgan tennis bo'yicha J60 tasnifiga kiruvchi o'smirlar o'rtasidagi "Tajikistan tennis Federation Cup" turnirining yakkalik bahsleri biz uchun ajoyib xushxbabar bilan yakunlandi. Qizig'i, yosh tennischilarimiz Ahmadjon Toshmuhammedov va Nuriddin Baxtiyorov barcha raqiblarini yengib, finalda o'zaro qarama-qarshi keldi. Mazkur bahsda Ahmadjon 6:1, 7:6 hisobida ustun kelib, turnir championiga aylandi, Nuriddin esa kumush medal bilan taqdirdi.

### OLIMPIADA

Xalqaro test agentligi (ITA) "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari davomida sportchilarni doping tekshiruvdan o'tkazish bo'yicha rekord ko'rsatkich o'rnatilganini qayd etdi. Ma'lumotga ko'ra, o'yinlar jarayonida yengil atletika, velopoga, eshkak eshish va boshqa shu kabi sport turlaridan umumiy hisobda 4 150 nafar sportchi doping tekshiruvdan o'tkazilgan. Bu "Parij - 2024" ishtirokchilarining 38,75 foizi, deganidir. Ayni holat Tokioda o'tgan Olimpiya o'yinlaridan 4 foizga, Rio Olimpiadasidan 10 foizga ko'pligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, AQSh, Xitoy, Avstraliya va Buyuk Britaniya mamlakatlari sportchilari eng ko'p tekshiruvga jaib qilingan.

# MISLI KO'RILMAGAN MOTIVATSIYA

Qurolli Kuchlar davlat muzeyida Parij – 2024 XVII yozgi Paralimpiya o'yinlarida qatnashib, g'olib bo'lib qaytgan yurtdoshlarimiz, xususan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakillari munosib taqdirlandi.



Ehtirom

## KO'NGILLARGA QUVONCH ULA SHIB

Mamlakatimiz Qurolli Kuchlarining tashkil etilganiga ham hademay 33 yil to'ladi. Bu bir navqiron yigit yoshiga teng davrdir. O'tgan yillarda davomida mamlakatimiz mustaqilligi va hududiy yaxlitligi, xalqimiz tinchligi hamda osoyishtaligini munosib himoya qilishga qodir, har qanday tashqi tajovuzga qaqshatqich zarba bera oladigan, zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlangan, tezkor, ixcham, professional asosdagi qudratli milliy armiyamiz shakllandi.



Oramizda milliy armiyamizning tamal toshini qo'yishga fidokorona xizmatlari bilan ulush qo'shgan insonlar talaygina. Shulardan biri zaxiradagi polkovnik Aleksandr Leonidovich Tyan bo'ladi.

Faxriy harbiy xizmatchi yaqinda 75 yoshni qarshiladi. Shu munosabat bilan Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutining bir guruh harbiylari u kishining xonardonida mehmon bo'ldi. Ustozlarning holidan xabar olish, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatish, e'zozlash shogirdlar zimmasidagi farz amal sanaladi.

Uzoq yillar tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi sohasida xizmat qilgan ustoz shogirdlari bilan bir dasturxon atrofida samimiy suhbat qurdi. Xotiralar jonlandi. Faxriy otaxon bunday e'tibor va g'amxo'rlik uchun barchaga minnatdorlik izhor qilib, yurtdan tinchlik va osoyishtalik hech qachon arimasin, deb tilak bildirdi.

**Mayor Sherqo'zi HAKIMOV**  
Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti



# SIYOSIY BILIMLAR

## mustahkamlanmoqda

Joriy yilning 27-oktabr kuni mamlakatimizda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlari saylovlari bo'lib o'tadi. Markaziy saylov komissiyasi tomonidan e'lon qilinganidek, saylov kompaniyasi 2024-yil 26-iyuldan boshlandi.

Yurtimizda kechadigan muhim siyosiy jarayon oldidan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi professor-o'qituvchilari Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'mondonligi bilan hamkorlikda Nukus garnizonidagi harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari, Qurolli Kuchlar xizmatchilariga saylov qonunchiligidan amalga oshirilgan o'zgarishlar, aralash saylov tizimining mohiyati, uchastka saylov



komissiyalarining faoliyati va majburiyatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirish hamda harbiy xizmatchilarning saylovgaga



oid siyosiy bilimlarini oshirish maqsadida "Mening tanlovim – obod Vatanim!" shiori ostida mashg'ulotlar tashkillashtirildi.

kunga kelib, jahondagi deyarli barcha mamlakatlarda davlat hokimiyyati va o'zini o'zi boshqarish organlarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan demokratik saylovlardan.

siyosiy tizimning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib ulgurgan.

O'zbekistonda saylovlar siyosiy tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mustaqillik yillarida mamlakatda demokratik saylovlar o'tkazish, tom ma'noda, muhim ijtimoiy-siyosiy an'anaga aylandi.

Tadbir davomida Qurolli Kuchlar akademiyasi professor-o'qituvchilari tomonidan Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlarida yaqinlashib kelayotgan siyosiy jarayonga puxta tayyorgarlik ko'rish bo'yicha tegishli tavsiya va takliflar berildi. Ishtirokchilar o'zlarini qiziqitirgan barcha savollariga javob olib, bu boradagi bilimlarini yana bir bor mustahkamladi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati**

### Xalqaro musobaqa

## Sportchilarimizdan ikkita xushxabar



Qozog'iston Respublikasining Baykonur shahrida raketamodel sporti bo'yicha "Baykonur kosmodromi kubogi" ochiq xalqaro musobaqasi va "Korkit-Ata" jahon kubogi bosqichini bo'lib o'tdi.

Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston terma jamoalarining 150 dan ortiq sportchisi ishtirot etgan ushbu musobaqalarda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti sportchilaridan iborat milliy terma jamoa mamlakatimiz sha'nini munosib himoya qildi.

Shiddatli va murosasiz kechgan bellashuvlarda turli mamlakatlardan kelgan mohir sportchilar o'zlarini tomonidan yasalgan raketa modellari va ularning ochiq osmonda parvoz qilish imkoniyatlarini namoyon etdi.

Quvonarlisi, o'zbekistonlik sportchilar jamoa hisobidan xalqaro musobaqada ikkinchi, jahon kubogi bosqichida esa 1-o'rinni qo'iga kiritib, butun dunyo raketamodel sporti muxlislarining olqishiga sazovor bo'ldi.

Shuningdek, shaxsiy hisobda bo'lib o'tgan bahslarda sportchilarimiz quyidagi yuqori o'rinnarni egalladi:



### "Baykonur kosmodromi kubogi" ochiq xalqaro musobaqasida:

- 1) Shahboz Bafoev: oltin medal (Buxoro v.);
- 2) Feruz Bahodirov: oltin medal (Buxoro v.);
- 3) Najmiddin Zaylidinov: oltin va bronza medal (Namangan v.);
- 4) Farhod Bakiyev: kumush medal (Samarqand v.);
- 5) Damir Bakiyev: kumush medal (Samarqand v.);
- 6) Azizbek Ismoilov: kumush medal (Namangan v.);
- 7) Firdavs Gulmurodov: kumush va bronza medal (Navoiy v.);
- 8) Saidamir Erkinov: bronza medali (Namangan v.).

### "Korkit-Ata" jahon kubogi bosqichida:

- 1) Farhod Bakiyev: oltin medal (Samarqand v.);
- 2) Olga Ibragimova: oltin medal (Sirdaryo v.);
- 3) Rashid Koshayev: oltin medal (Qoraqalpog'iston R.);
- 4) Saidamir Erkinov: oltin va kumush medal (Namangan v.);
- 5) Damir Bakiyev: oltin va bronza medal (Samarqand v.);
- 6) Azizbek Ismoilov: ikkita kumush medal (Namangan v.);
- 7) Najmiddin Zaylidinov: kumush medal (Namangan v.);
- 8) Shahboz Bafoev: kumush medal (Buxoro v.);
- 9) Shamsiddin Bafoev: kumush medal (Buxoro v.);
- 10) Sardor Ro'ziyev: kumush va bronza medal (Buxoro v.);
- 11) Feruz Bahodirov: bronza medal (Buxoro v.);
- 12) Akmaljon Abidov: bronza medal (Andijon v.);
- 13) Farrux Safoyev: bronza medal (Navoiy v.);
- 14) Umirbek Yo'ldoshev: bronza medal (Toshkent sh.).

**O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati**



# “KO'NGILCHANLIK QOTILLIKDAN YOMON”

“Ko'ngilchanlik qotillikdan yomon” – sevimli yozuvchimiz Tog'ay Murodning ushbu iborasini juda ham ko'p o'layman. Ko'ngilchanlik – bu bir tarafdan yaxshi, bir tarafdan judayam yomon...

Yaxshi tarafı insonlarga rahm-shafqatlı, ularga ozor bermaydigan bo'lish. Yomon tarafı, boshqalarnı ko'ngliga qarab, o'z xohish-istaklarining voz kechish. Masalan, ota-onan tanlagan kasbda o'qish.

Katta farzand bo'lganım uchun buvum, ota-onam istaklarini o'zimnikidan ustun qo'yish, ular rozi bo'lishi uchun harakat qilish – menga juda og'irlik qilgan. Vaqt kelsa ichlaridagi dardlari-yu, muammolarini doston qilib o'tirishlari – jajji qalbimni simillatardi.

Men eng katta nabiraman, singlim, jivanlarim erkin, istaklarini bemalol bayon etadi. Men esa hozirgacha biror istagimni bildirmoqchi bo'lsam, boshqalar qanday fikr bildiradi, ko'ngliga tegmasmikin, deb ko'p o'layman.

Odatda yoshi kattalar ko'proq kamchiliklar haqida gapireshadi. Birovlarning hayotini taqqoslashadi, muhokama qilishadi. Buvim bilan vaqtimni ko'p o'tkazganim uchun doim qarindosh-urug'larning keldi-kettisi bo'lardi. Beixtiyor ularning maslahat so'ragani, noligani, muammolarini haqida eshitib qolardim.

Endi bilim olib, kitob o'qib tushunyapmanki, noliydig'an ayollar bilimli bo'lganida bekorchi vaqt, g'iybat qilishga xohishi bo'lmasmidi?

Har bir insonning hayotida past-balandliklar, turli xil vaziyatlar bo'lishi tayin. Insonlar nimaga boshqalarda yaxshi, menda vaziyat yomon, deb o'laydi. Aslida o'zining fikrlashi, dunyoqarashi shunday holatga olib kelib qo'yadi. Fikrlar ro'yoga oshadi...

Xotin-qizlar fikrlashi, gapiroytgan so'zleri qanchalik energiyaga, kuchga egaligini bilganida edi...

Biror noto'g'ri ish qilmoqchi bo'lsak, qo'rqqanimiz uchun tiyilamiz. O'ylab ko'rish kerak, qo'rqiб tiyilish kerakmi yoki yaxshi ko'rganimiz uchun? Biror kishidan qo'rsangiz, vazifa bersa qanday bajarasiz, yaxshi ko'rsangiz-chi?

Tasavvur qiling, haykallar ko'rgazmasiga bordingiz, u yerda go'zal yaratilgan haykallar va yoqimsizroqlari bor. Unisi bunday, bunisi yoqmadni, xunuk deysiz. Bahoni kimga beryapmiz haykalgami yoki haykaltaroshgami?

Endi insonlarni g'iybat, muhokama qilgandayam aslida u insondan norozimiz yoki u insonni yaratgandanmi? Shularni bir tafakkur qilib ko'ring!

Hozirgi kunda atrofingizda kim yoqmayapti, qaynonangizmi, qo'shningizmi farqi yo'q. Uni boricha qabil qiling, shunda yomon xarakteri ham ko'rinnay qoladi.

Bir ustozim aytadi, inson qanchalik biror kishini muhokama, g'iybat qilsa past energiyaga tushib qoladi. Tasavvur qiling, zinadan chiqyapsiz, bilim olganingizda, pozitiv fikrlaganingizda, yaxshi niyatlar qilganingizda bir pog'onaga ko'tarilasiz. Birovdan norozi bo'ldingiz, boricha qabil qila olmadingiz, g'iybat qildingiz pastga tushib ketaverasiz. Yana ko'tarilishingiz uchun vaqt kerak. Boy va muvaffaqiyatli insonlar doimo yuqori energiyada yurishadi, o'zi ustida ishlaydi, bilim oladi.

O'zim va yon-atrofimdag'i qizlarni imkon boricha bilim olishga chorayman. Ana shunday ayollar o'zları fikr almashishga, o'gan bilimlarini aytishga kelishadi. Biz Vatan himoyachilarini bilan

birgalikda ishlaymiz. Shunday ekan, zimmamizdagi mas'uliyat zalvari yanada ortadi. Har bir xatti-harakatimiz bilan ularga madad berishimiz kerak.

Aslida olayotgan bilimlarimiz juda foydali, albatta amal qilsak. Xuddi kitob sotib olib, uyingizga javonga qo'yaningiz qayerda-yu, uni o'qib, anglab, hayotingizga tatbiq qilganingiz qayerda?

Har bir inson o'qisa, avvalo, o'zi rivojlanadi, yaqin atrofdagi tanishlariga ham yaxshi ta'sir qiladi. Har bir inson moliyaviy savodxon bo'lsa, yurtimiz boy bo'ladi. Oilasini qo'yib o'zga yurtga ishlagani ketib, farzandlarining yoshligrini o'tkazib yuboradigan insonlar kamayadi.

Har bir ishning yechimi – bilim! Ulug' bobokalonimiz Imom Buxoriy aytganidek: "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'limgay!"

Qaysi soha vakili bo'lishingizdan qat'i nazar, o'z sohangizda puxta bilim olishingiz kerak. Ayol-qizlarimiz rivojlanishdan, bilim olishdan to'xtamasliklari shart. Shunda yangi yo'llar, yo'nalishlar ochilaveradi...

So'zimni ustozimning tavsiyalari bilan tugatmoqchiman: "Hayotingiz qanday bo'lishi bugungi oddiy odatlarga bog'liq. Pozitiv fikrlash, shukronalik, minnatdorlik, tabassum, qalban mehrga to'la bo'lish, shartsiz yaxshilik ularish hamma-hammasi odat kabi shakllanadi. Quyosh bir joydan chiqib, bir joyga botishi, bir kun 24 soatdan iboratligi, kunduzni kecha, kechani kunduz o'z vaqtida va o'rnida bosib turgani – bu tabiat mustahkam odatlarga egaligini ko'rsatadi. To'g'ri yoki yomon fikrlar bilan yashash ham aslida odat, shukrli yoki noshukr bo'lish ham odat. Hammasi o'zingizga, kelajagingiz qanday bo'lishi hozir va shu yerda qanday fikrlashingizga bog'liq".

**Parvina ABDUHAMIDOVA,  
Markaziy harbiy okrug  
matbuot xizmati  
bosh mutaxassisini**

## Sayyor qabul

# Murojaatlar ijrosi ta'minlanmoqda

Farg'ona harbiy prokuraturasi tomonidan Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi va boshqa idoralar mas'ullari bilan hamkorlikda Marg'ilon shahridagi harbiy qismida ommaviy sayyor qabul o'tkazildi.

Unda tegishli soha mutaxassislari jalb qilingan holda harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar xizmatchilarini hamda ularning oila a'zolari murojaatlari tinglandi.

Turli masalalarga oid murojaatlarning ko'pchiliginini joyida hal etish choralar ko'rildi. Yechimi vaqt talab qiladigan murojaatlar yuzasidan mutasaddi tashkilotlar mas'ullariga tegishli ko'rsatmalar berilib, ijrosi nazoratga olindi.

Shuningdek, tashrif buyurganlar bilan ochiq muloqot o'tkazildi. Tadborda murojaatlar to'g'risidagi qonunchilik, murojaat turlari, shakllari, ularni hal etishning qonuniy muddatlari va tartibi, bu boradagi normativ-huquqiy hujjalarning talablarini buzganlik uchun javobgarlik asoslari haqida atroficha tushuntirishlar berildi.

So'z olganlar harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun yaratilgan imkoniyat hamda imtiyozlar xususida to'xtalib, mazkur yo'nalishda qabul qilingan yangi qonunchilik hujjalarning mazmun-mohiyatini yetkazdi.

**Adliya kapitani Hasanjon ERGASHEV,  
Farg'ona harbiy prokurorining yordamchisi**

## Bilishingiz shart!

Kuz-qish mavsumida ob-havoning keskin sovib ketishi natijasida kondisionerlar va turli xildagi dekorativ kaminlar, pechlar hamda yoz bo'yи foydalanmasdan korroziyaga uchragan elektr isitish moslamalaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj ortib boradi. Bunday paytlarda ayrim fuqarolarning ehtiyojsizligi oqibatida ko'ngilsiz hodisalar va yong'inlar sodir bo'lishi mumkin.

Toshkent garnizoni yong'in nazorati inspeksiyasi mazkur hodisalarning oldini olish maqsadida, elektr uskunalaridan hamda isitish moslamalaridan foydalanishda quyidagi yong'in xavfsizligi talablariga rioxal qilishni so'raydi:  
- isitish mavsumi boshlanishidan oldin pechlar, qozonlar, issiqlik hosil qiluvchi elektr-gaz uskunalar hamda boshqa isitish anjomlari va tizimlari tekshirilgan, ta'mirlangan bo'lishi kerak;

# Yong'in xavfsizligiga e'tibor

- nosoz isitish pechlari, qozonxona jihozlari, issiqlik hosil qiluvchi qurilmalar va boshqa isitish anjomlari foydalanish taqilanadi!

Elektr qurilmalaridan foydalanishda quyidagilar taqilanadi:

- elektr jihozlarini ishlab chiqaruvchining foydalish hujjatlari talablariga muvofig bo'lmagan sharoitlarda ishlatalish yoki nosozligi bo'lgan elektr jihozlari foydalanish;

- himoya qobig'i shikastlangan yoki himoyalash xususiyatini yo'qtgan elektr kabel va simlardan foydalanish;

- shikastlangan (nosoz) elektr rozetkalaridan, rubiniklardan, himoya vositalaridan, elektr simlari qutilaridan va boshqa elektr qurilmalaridan foydalanish;

- elektr simlari va kabellarni yelimalsh hamda bo'yash, elektr lampalar, yoritkichlarni qog'oz, mato va boshqa yonuvchi materiallar

- bilan o'rash, shuningdek yonuvchan materiallar saqlanadigan omborxonha (yordamchi) binolaridagi chiroqlardan himoya qalpoqlarini yechib olgan holda foydalanish;

- yonmaydigan materialdan ishlangan tagliklarisiz (podstavka) dazmol, elektr plitka, elektr choynak va boshqa elektr isitish anjomlari foydalanish;

- tarmoqqa ulangan elektr isitish moslamalarini va boshqa maishiy elektr jihozlarini nazoratsiz qoldirish (ishlab chiqaruvchi korxonaning yo'riqnomasida kun-u tun ishlaydigan va (yoki) ishlashi mumkin bo'lgan elektr jihozlari bundan mustasno);

- nostonart (qo'l bola) elektr isitish moslamalaridan, shuningdek ularda konstruksiyasida nazarda tutilgan yong'in kelib chiqish ehtimolini istisno qiluvchi termoregulyatorlari mavjud

- bo'limganda yoki ishlamay qolganda foydalanish;

- elektr uzatish tarmoqlari va elektr jihozlarini ortiqcha yuklanishdan va qisqa tutashuvlardan himoya qilish uchun avtomatik saqlagichlar va kalibrangangan eruvchan himoya o'rnatmasi o'rniga qo'l bola tayyorlangan (sim o'ramalari, "qo'l bola saqlagich" va boshqalarni) vostalarini qo'llash;

- omborxonalar ichidan, shuningdek yong'in hamda yong'in-portlash xavfi bo'lgan hududlardan elektr sim va kabellarni tranzit holda hamda havo quvurlari va quvurlar tarmog'i orqali olib o'tish;

- yonuvchi materiallar saqlash omborxonalarini va bostirmalari, yonuvchan tomlar ustidan ochiq elektr uzatish liniyalari hamda tashqi elektr simlarini yotqizish;

- arxivlar, muzeylar, galereyalar, kutubxonalar va

omborlar binolarida elektr isitish moslamalaridan foydalanish;

- elektr tarmog'ining yuklamasini ruxsat etilgan me'yordan oshirish;

- qurilish-montaj, ta'mirlash va avariya tiklash ishlari amalga oshirilayotgan joylarni elektr ta'minoti bilan ta'minlash hamda vaqtinchalik illyuminatsiya yoritish uchun o'tkazilgan elektr o'tkazgichlardan tashqari, vaqtinchalik elektr o'tkazgichlardan foydalanish va ularni o'matish;

- radio va telefon simlari elektr tarmoqlari simlari sifatida foydalanish;

- taqsimlovchi elektr shchitlari va ishga tushirish boshqaruv jihozlarini ochiq holatda ishlash;

- turli xil materiallardan (mis va alyuminiydan) tayyorlangan elektr simlari (kabellari) o'tkazgichlarni bir-biriga to'g'ridan to'g'ri ulash;

- bir-birini zaxiralovchi elektr zanjirlarini, ishchi va avariya yoritish zanjirlarini, boshqaruv va ta'minlovchi elektr kabellarni bir lotokda yoki qurilish konstruksiyasining bir yopiq kanalida, bog'lamida, metall yengda, qurvurda o'tkazish.

Yong'in xavfsizligi qoidalari rioxal etish bilan siz o'zingiz va yaqinlaringizni yong'in hamda ko'ngilsiz hodisalardan asrab qolgan bo'lasiz.

**Podpolkovnik  
O'ktam XAITOV,  
TOQQQ yong'in xavfsizligi  
xizmati boshlig'i**



## Reklama

# O'qishga marhamat!



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi "Xiva-Karvon" o'quv sport-texnika klubi jamoasi Xiva shahri va tumani hududida istiqomat qilayotgan yoshlarni va barcha xohlovchilarni zamon talablari asosida faoliyat boshlagan haydovchilikning "B", "BC" toifalariga hamda "B" dan "C" ga va "E" ga qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga o'qishga taklif qiladi.

Bundan tashqari, "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon" kabi seksiyalarda ham qatnashishingiz mumkin.

Agar o'qimoqchi yoki sportning texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanmoqchi bo'lsangiz, bunda sizga "Vatanparvar" tashkiloti ko'makchi bo'lishini unutmang! Chunki bu yerda mashg'ulotlar qiziqarli va yuqori saviyada tashkil etilib, ko'p yillik boy tajribaga ega mutaxassislar tomonidan olib borilishi kafolatlanadi.

## KURS VA TO'GARAKLARIIMIZ SIZGA MUNTAZIR!

### O'zbekiston

Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi Urganch tumani o'quv sport-texnika klubi haydovchilik kasbini egallamoqchi bo'lganlarni



"A", "B", "BC", "BE", "CE" hamda "D" toifali haydovchilik kurslariga o'qishga, shuningdek sportning texnik va amaliy turlari – "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon" hamda "Aviamodel" kabi seksiya va to'garaklarda shug'ullanishga taklif etadi.

Ayni paytda zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan qayta jihozlangan mazkur klubda avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash jarayoni malakali mutaxassislar tomonidan olib borilishi kafolatlanadi. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

### Hurmatali yoshlar!

Agar siz yuqorida aytib o'tilgan kurs va to'garaklarda ta'lim olishni istasangiz, bunda sizga "Vatanparvar" tashkiloti ko'makdosh bo'lishini unutmang!



**Urganch tumani Navro'z shaharchasi, Mustaqillik ko'chasi, 10-uy.**



**91 430-55-56.**

# Kir yuvish mashinasidan to'g'ri foydalanish qoidalari

Bugungi sahifamizda ayollarning ro'zg'or ishlarida eng katta yordamchisi – kir yuvish mashinasi haqida gaplashamiz. Bu sehrli uskuna uyda boshqa yumushlarni bajarguningizcha, kir kiyimlaringizni tozalab yuvib, "Kiyimlarni ilib qo'y!" degandek musiqa chalib, o'ziga chorlaydi.

Kir yuvish mashinasi uzoq yillar davomida xizmat qilishi va kiyimlarni sifatlari yuvishi uchun undan to'g'ri foydalanish muhim. Avvalo, uskuna qanday dasturlarni taklif qilayotganini ko'rib chiqish lozim. Kiyim sifatining yo'qolmasligi shu funksiyalarga bog'liq. Yuviladigan kiyimning rangiga, matosiga hamda kirlanish darajasiga qarab ajratish lozim. Mashinada yuvishda kir yuvish kukuni, suyuq gel yoki kapsula, shuningdek hid beruvchi va mato yumshatgichdan foydalanish mumkin. Kapsulani to'g'ridan to'g'ri barabanga, kukun yoki gelni maxsus joyga solgan ma'qul. Kir yuvganda, albatta, ularning cho'ntaklarini tekshiring, zamok va tugmalarini o'tkizib, kiyimni teskari o'girib soling! Kichik yoki nozik narsalarni maxsus qopchaga solib yuvish qulay.

Kir yuvish mashinasining turli tartib va dasturlari mavjud. Siz yuvmoqchi bo'lgan kiyimning mato turiga qarab, dasturni o'zgartira olasiz. Masalan, sintetik mato, paxtali mato yoki nozik kiyimlar. Shu bilan birga ularning yuvish vaqtini va suvning darajasi ham turlichadir.

- 90°C – sochiqlar, allergiyaga moyillar, yangi tug'ilgan chaqaloqlar kiyimi;
- 60°C – choyshab, dasturxon, bolalar kiyimlari;
- 40°C – futbolkalar, ko'yaklar, paxtali kiyimlar, jemper va jinsilar;
- 30°C – ichki kiyimlar, ipak, atlas matoli sharflar.

Kir yuvish mashinasi uchun mo'ljallangan vositalardan foydalaning, agar qo'lda yuvish uchun mo'ljallangan bo'lsa, ko'p miqdorda ko'pik hosil qilib, eshigi atrofidan sizib chiqadi. Bu mashina ehtiyyot qismlariga jiddiy zarar yetkazadi. Kir yuvish kukuni miqdoriga ham e'tiborli bo'ling! Kukun qadog'idagi tavsiyalarga amal qiling!

Kirlarni yuvib bo'lgach, ularni darhol kir yuvish barabanidan oling, chunki kiyimlar uzoq



muddat qolib ketsa, ulardan noxush hid kelishi mumkin. Bunday holatda kir yuvish mashinasida ham nosozliklar kuzatiladi. Chunki ortiqcha

## Pazanda

### Baqlajonning foydalari

Baqlajon ozuqalar ombori hisoblanadi. Unda C va K vitaminlari, kletchatka, marganes, kaliy, magniy, mis va hatto oz miqdorda o'simlik oqsili bor. Bunday boy kompozitsiyaga ega bo'lgan baqlajon past kaloriyalari mahsulot hisoblanadi. Antioxidentlar surunkali kasallik va qarilikka qarshi kurashadi hamda hujayralarni erkin radikallarning shikastlanishidan himoya qiladi. Yana bir xususiyati yurak qon-tomir kasalliklarining rivojlanish xavfini ham kamaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, baqlajonni mutazam iste'mol qilish yurak qon-tomir salomatligi uchun xavfli bo'lgan xolesterin va triglitseridlar



darajasini pasaytiradi. Ajoyib xususiyatlaridan yana biri shundaki, qondagi qand miqdorini nazorat qilishga yordam beradi. Baqlajon tarkibidagi tolaning yana bir afzalligi u ishtahani boshqarishga yordam beradi. Ovqat hazm qilish jarayonini sekinlashtirgan holda to'yinganlik hissini sezilarli darajada uzaytiradi va ortiqcha ovqatlanish xavfini kamaytiradi, natijada vazn ortmaydi. Bundan tashqari, oshqozon-ichak trakti salomatligi uchun juda foydal!



yuvib, quriting! Shu bilan birga mashinaning pastki qismida joylashgan filtrni ham ko'zdan kechirib turing! Bu drenajning vazifikasi turli chiqindilarni tutib qolish. Agar siz haftasiga 1-2 marta kir yuvsangiz filtrni har 2-3 oyda, 3-4 marta yuvsangiz 3-4 haftada bir marta tekshirib, tozalab turing! Chunki filtrda yig'ilib qolgan tanga, tugma, soch tolasi yoki turli chiqindilar mashinaning to'g'ri ishlashiga xalaqt beradi.

Kir yuvish mashinangizga muntazam texnik xizmat ko'rsatish uning buzilish xavfini kamaytiradi hamda kiyimlaringizning samarali yuvilishini ta'minlaydi.

### Baqlajonli yengil taom

**Kerakli masalliqlar:** 3 dona baqlajon va tuxum, 200 g non uvog'i, 200 g tvorogli pishloq, pomidor, ko'kat, ziravorlar.

**Tayyorlanishi:** baqlajonlarni o'rtacha galinlikda kesib olamiz. Tuxum, ziravor va tuz solib, atala tayyorlaymiz. Kesilgan baqlajonni birinchi bo'lib unga, keyin atalaga va non uvog'iga botiramiz.

Patnisga baqlajonlarni terib, 180°C da 20 daqiqa davomida pishirib olamiz.

**Mag'zi:** tvorogli pishloq, ko'katlar va maydalangan sarimsoq solib, aralashtiramiz.

Pishgan qarsildoq baqlajonlar orasiga pishloqli masalliq, kesilgan pomidor, salat bargi qo'yib, taxlab chiqamiz. Bezatib, dasturxoniga tortamiz. Yoqimli ishtaha!



Har bir insonning jamiyatda munosib o'rin egallashida ustoz va murabbiylarning hissasi beqiyos. Ustoz deganda nafaqat maktab yoki oliy ta'lif muassasalaridagi pedagoglar, balki mustaqil hayotda o'z yo'limizni topishda to'g'ri yo'l ko'rsatgan insonlar ham tushuniladi. Bu borada ularning fidokorona mehnati va zahmatini yoddan chiqarib bo'lmaydi.

O'qituvchilik odamdan sabr-toqat, tafakkur va bilim talab etishi bilan birligida, unib kelayotgan yosh avlodga cheksiz mehr ko'rsatadigan xislatsni o'zida mujassamlashtirgan sharaflı kasbdir. Yurtimizda 1996-yildan buyon 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni sifatida nishonlanadi va bu sana dam olish kuni etib belgilangan. Bu bayram ustozlarga hurmat va ehtirom ko'rsatish, minnatdorlik bildirish, mehnatlarini e'tirof etishga imkon yaratadi.

Yurtimiz pedagoglari har yili oktabr oyining boshida mazkur kasb bayramini tantanali tarzda qarshi oladi. Lekin dunyo mamlakatlari ayni bayram turli-tuman sanalarga to'g'ri keladi. Masalan,



UNESCO tomonidan 1994-yil 5-oktabr – Butunjalon o'qituvchilar kuni sifatida qabul qilingan. Armaniston, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Moldaviya, Estoniya, Litvada bu bayram UNESCO tomonidan belgilangan sanada o'tkaziladi. Rossiyada ushbu ayyom oktabr oyining birinchi yakshanbasida nishonlansa, Argentina o'qituvchilari kuni sobiq Prezident Domingo Faustino Sarmiento xotirasiga bag'ishlanib, har yili 11-sentabrdan bo'lib o'tadi va bu butun xalq uchun milliy bayram sifatida juda muhim voqeа hisoblanadi.

Hindistonda mamlakatning II Prezidenti bo'lgan Sarvepalli Radhakrishnan tug'ilgan sana – 5-sentabrdan O'qituvchilar kuni bayram qilinadi. Shu kuni o'quvchilar o'qituvchilar bilan o'rinn almashib, ustozlar o'rniga dars o'tadi. Bu sana Xitoya 10-sentabr etib belgilangan. O'quvchilar va talabalar bu kuni o'z



ustozlarini tabriklab, ularga gullar, sovg'alar taqdim etadi, bayramona tadobilar, festivallar o'tkazishadi.

Chexiyada muallimlar kuni ilmiy pedagogika asoschisi Yan Amos Komenskiy tug'ilgan sana – 28-martda keng nishonlanadi. Uning xotirasiga bag'ishlab 1994-yildan buyon o'tkaziladigan tanlovda yilning eng yaxshi tarbiyachisi "Oltin Amos" mukofotini qo'lga kiritadi. Braziliyada murabbiylar kuni 15-oktabrga belgilangan. Eng qizig'i, Albaniyada ustozlar kuni Xalqaro xotin-qizlar bayrami, ya'ni 8-martda o'tkaziladi.

O'zbekistonda Xotira va qadrash kuni sifatida o'tkaziladigan 9-may sanasida koreyaliklar o'qituvchilarini kasb bayrami bilan tabriklashadi. Tayvanliklarda bu bayram Konfutsiy tavallud topgan kun sharafiga – 28-sentabrga to'g'ri

keladi. Oktabr oyining oxirgi jumasida Avstraliyada ustozlarga bayram sovg'alari ulashiladi, ko'chalar turfa rangli chiroqlar bilan yasatiladi, mamlakat bo'ylab bayram mushaklari otiladi.

Livanda o'qituvchilar kuni yuqori ko'lamma nishonlanadigan bayramlardan biri bo'lib, ustozlarga atalgan tantanalar 3-martdan 9-martga qadar davom etadi. Turkiyalik murabbiylarga 24-noyabrda kasb bayrami munosabati bilan ehtirom ko'rsatiladi. Arab davlatlarida bu ayyom 28-fevral kuni nishonlanib, yosh avlodni shunday sharaflı kasbni tanlashga undash maqsadida turli tadbirlar yushtiriladi.

Yaponiyada esa o'qituvchilar kuni bayram qilinmaydi. Bu ularning mashhaqtali kasbiga nisbatan hurnatsizlik emas, balki ularni yilning muayyan bir kuni emas, har kuni e'zozlashining belgisidir. Yaponiyada o'qituvchi eng obro'li va izzat-hurmatga loyiq inson hisoblanadi. Ular uchun metro bektasi va vagonlarda alohida o'rinnlar ajratilgan, do'konlarda aynan ular uchun maxsus xizmat ko'rsatiladi va ular har qanday transport vositasi uchun chipta olishda navbatda turmaydi. Yapon o'qituvchilari deyarli har kunini mana shunday bayramday o'tkazgani bois, ehtimol, ularga bu kunni nishonlashga hojaq qolmagan.

Muxtasar qilib aytganda, bayram qayerda qachon nishonlanishidan qat'i nazar ustozlarning mehnati va jamiyat ravnagiga qo'shgan hissasini hamisha har qancha e'tirof etsak arziydi.

**Internet ma'lumotlari asosida tayyorlandi.**

**@Vatanparvargazetasi\_bot**  
"Vatanparvar" birlashgan tahririysi bilan bog'lanish uchun telegram bot



## SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI



MUASSIS



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

**Tahririyat kengashi:**  
general-major Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otabek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.  
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

**Bosh muharrir:**  
podpolkovnik Ahror Ochilov

**ISSN 2010-5541**

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

**Telefonlar:**  
kotibiyat: 71 260-36-50  
buxgalteriya: 71 260-35-20  
yuridik bo'lim: 71 260-29-41  
faks: 71 260-32-29

**Navbatchi:** katta leytenant Islomjon Qo'chqorov  
**Sahifalovchi:** Dilnoza Meliqo'ziyeva  
**Musahih:** Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-5829  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 33 893 nusxa  
Bosishga topshirish vaqt: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiha "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.  
Gazeta 1992-yilning 24-iyundan chiqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.  
Bahosi: Kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:  
100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.



t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaa vazirligi



www.mv-vatanparvar.uz  
www.mudofaa.uz



mudofaa vazirligi



mudofaa vazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya